

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagoigka instituti**



TARIX FAKULTETI

Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi kafedrası

**5111600 - «Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq
ta`limi» bakalavriat tálim yo`nalishining 4 b-kurs talabası**

Karimov Abdukarim Baxriddinovichning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “O`zbekistonda siyosiy partiyalar va ularning asosiy
vakolatlari”**

Talaba: _____
Ilmiy rahbar: _____
Kafedra mudiri: _____

Karimov A
doc.Seitova Z.P.
(PhD)Tilewov E.

***Kafedra majlisining 2021 yil «_____» «_____» sanasidagi
_____ - sonli bayonnomasi bilan himoyaga ruxsat berildi***

Nukus – 2021 yil

Bitiruvchi talaba Karimov Abdukarim Baxriddinovich
“O`zbekistonda siyosiy partiyalar va ularning asosiy vakolatlari”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va
huquq ta`limi kafedrasining 2021 yil «_____» _____ kungi «____» -
sonli bayoni asosida davlat attestatsiya komissiyasiga himoyaga tavsiya
etildi.

Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari
va huquq ta`limi kafedrasini mudiri:

E.Tilewov

Bitiruvchi talaba Karimov Abdukarim Baxriddinovich
“O`zbekistonda siyosiy partiyalar va ularning asosiy vakolatlari”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va
huquq ta`limi kafedrasining 2021 yil «__» __ kungi «____» - sonli bayoni
va institut rektorining 2021 yil «__» _____ kungi «____» - sonli
buyrug`i bilan davlat attestatsiya komissiyasiga himoyaga yuborildi.

Davlat attestatsiya komissiyasi qarori bilan Karimov Abdukarim
Baxriddinovichga bitiruv malakaviy ishiga ____ ball qo`yildi.

O`zbekistonda siyosiy partiyalar va ularning asosiy vakolatlari

Reja:

Kirish.....4

BOP-I. Jamiyat tizimida siyosiy partiyalarining urni.

- 1.1. Partiyalarning tushunchasi, belgilari va turlari.....9
- 1.2. Siyosiy partiyalarning funktsiyalari va ularning jamiyat rivojlanishida tutgan urni.....19

BOP-2. Demokratik islohotlarini chukurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish masalalari.

- 2.1. Siyosiy partiyalarning demokratik islohotlarini chukurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishdagi roli va ahamiyati.....26
- 2.2. Davlat strategik rejalari va dasturlari – islohotlarning drayveri (2021 yil – “Yoshlarni qo`llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” Davlat dasturi).....35
- 2.3. Siyosiy partiyalarning vakolatli vakillarining huquqiy maqomi.....47
- Xulosa.....62
- Adabiyotlar royxati.....64

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligi. Siyosiy partiyalar mamlakatni mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlantirish hamda demokratiyani ta'minlashda favqulodda muhim rol o'ynaydigan jamoat birlashmasidir.

Partiyalar fuqarolarning siyosiy hayotda, davlat boshqaruvida ishtirokini ta'minlash, demokratik davlatda davlat hokimiyatining birdan bir manbai bo'lmish – xalqni siyosiy irodasini ifodalashning muhim vositasidir. Siyosiy partiyalar ko'p hollarda hokimiyatning ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi tarmoqlari o'rtasida bog'lovchi bo'g'in vazifasini o'tab, mazkur davlat hokimiyati organlarining mamlakat ichki va tashqi siyosati bo'yicha harakatlar dasturini belgilab olishda ham samarali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu muhim institut fuqarolarning uyushish, fikrlash, yig'ilish erkinliklariga asoslanadi. Saylovchilarga ijtimoiy rivojlanishning yaxlit modelini taklif qilish va hokimiyatga kelib, ushbu takliflarni amalga oshirish imkoniyati siyosiy partiyalarni boshqa jamoat tashkilotlaridan farqlovchi xususiyatlardan hisoblanadi.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning siyosiy partiyalarga uyushish huquqi mustahkamlandi, siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalashi va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etishi e'tirof etildi. Yurtimizda siyosiy partiyalarning bevosita faoliyatiga oid yaxlit uchta qonun qabul qilingan.

Ushbu qonunlarda eXHTning Insoniylik mezonlari bo'yicha konferentsiyasining Kopengagen kengashi hujjatida belgilangan alohida shaxslarning yoki shaxslar guruhlarining to'la erkinlik sharoitida o'z siyosiy partiyalarini yoki boshqa siyosiy tashkilotlarni tuzish huquqini hurmat qilish hamda bunday siyosiy partiyalar va tashkilotlarga huquq va

davlat organlari oldida tenglik asosida, bir-biri bilan musobaqalashish imkonini beruvchi zarur yuridik kafolatlar o'z aksini topgan.

“Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi Qonunda davlat siyosiy partiyalar huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofaza etilishini kafolatlashi, ustavda belgilangan o'z maqsadlari va vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib berishi qayd etildi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish bo'yicha ulkan islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, 2017 yil 13 iyulda Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi partiyalar faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qildi. Prezidentimiz ushbu ma'ruzada “bugun zamonning o'zi barchamizdan, birinchi navbatda, siyosiy partiyalarning vakillari, deputat va senatorlardan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning nafaqat ishtirokchisi, balki tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishni, boshqalarga namuna ko'rsatishni talab etmoqda” – deb ta'kidladilar¹.

Respublikamiz siyosiy hayotida hozirda mavjud siyosiy partiyalar o'tish davridagi ijtimoiy-siyosiy murakabliklarga qaramay o'zining davomiy faoliyatini saqlagan holda yildan-yilga faollashib bormoqda. Demokratik huquqiy davlatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan siyosiy partiyalar faoliyatini tartibga solishda milliy qonunchiligimiz sohaga doir qonunlar va qonunosti hujjatlari mavjud. Lekin, qonunlar dogma bo'lmay

¹ Мирзиёев Ш.М. Парламентимиз ҳақиқий демократия мактабига айланиши, ислохотларнинг ташаббускори ва асосий ижрочиси бўлиши керак. Олий Мажлис палаталари, сиёсий партиялар ҳамда Ўзбекистон Экологик ҳаракати вакиллари билан учрашувдаги маъруза. 2017 йил 12 июль.// Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.-Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. -Б.539-586.

jamiyat va davlat taraqqiyoti bilan hamohang rivojlanishini inobatga olsak bu sohadagi qonunchilikni yanada tadqiq etishni taqozo etadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, mamlakatimizda ko'ppartiyaviylik tizimini hozirgi davr talablariga mos ravishda shakllantirish va bu boradagi muammolarni teran yoritib berish dolzarb masalaga aylandi. Aniqroq qilib aytganda O'zbekistonda shakllanayotgan ko'ppartiyaviylik tizimininig mazmun mohiyati va namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganish va targ'ibot qilish muhim ahamiyatga ega. Bu esa biz tanlagan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakavi ishimizning obyekti- siyosiy partiyalar.

Bitiruv malakavi ishimizning predmeti-O'zbekistonda shakllanayotgan ko'ppartiyaviylik tizim.

Bitiruv malakaviy ishimizning o'rganilganlik darajasi. Fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri bo'lgan, siyosiy partiyalarning faoliyatini borasida bir qancha huquqshunos, siyosatshunos olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, o'zbek olimlaridan I.R.Bekov², D.Q.Axmedov³, E.X.Halilov⁴, S.A.Abbosxo'jayev⁴, M.Qirg'izboyev⁵, O.T.Husanov⁶, O.Jumayev, H. Muhamedov va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Bu olimlar o'z tadqiqodlarida siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat hayotidagi o'rnini ko'rsatib berib, ularning turli qirralarini o'rganganlar.

² I.R.Bekov "Saylov va siyosiy partiyalar" T, TDYuI. 2004 y., "Siyosiy partiyalar va jamiyatni demokratlashtirish" T.: TDYuI nashriyoti, 2009 y.

³ D.Q.Axmedov "Xorijiy mamlakatlarda siyosiy partiyalar va partiyaviy tizim." T.:TDYuI nashriyoti,2004y.

⁴ E.X.Halilov "O'zbekiston Respublikasining vonun chiqaruvchi oliy organi: soxta vakillikdan haqiqiy parlamentarizmga qadar."-T.,O'zbekiston , 2001y. "Saylov to'g'risidagi O'zbekiston qonunlarining qaror topishi va rivojlanishi" T.,O'zbekiston, 1999 y. ⁴ S.A.Abbosxo'jaev "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qo'nunchilik palatasi faoliyatini tashkil etish": yurid.fan.nom. dis....-Toshkent, 2007.

⁵ M.Qirg'izboev "Fuqarolik jamiyati: Siyosiy partiyalar, mafkuralar madaniyatlar." T.: Sharq, 1998 y.; Demokratik ko'ppartiyaviylik va parlamentarizm tamoyillarini rivojlantirish masalalari. T.: Sharq, 2003 y; O'zbekiston: fuqarolik jamiyati sari T.: Sharq, 2003 y.

⁶ O.T.Husanov "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsmya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan tuzatishlarga sharxlar.-T,Adolat, 2007y.

Bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi va vazifalari.

O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va rivojlanishi jarayonini tadqiq etish va siyosiy partiyalarning tutgan o'rnini tahlil etishdan iborat.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun bitiruv malakaviy ishda quyidagi masalalarni yoritish vazifa qilib olindi:

- Siyosiy partiyalarning tushunchasi, mazmuni va mohiyatini ochib berish.

- O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimini yaratish uchun zaruriy huquqiy asoslarining yaratilishini o'rganish.

- O'zbekistonda davlat boshqaruvini yangilash demokratlashtirishda siyosiy partiyalarning o'rnini va rolini tahlil qilish.

- siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rnini va ahamiyatini ochib berish;

- siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi va ularning boshqa jamoat birlashmalaridan farqini ko'rsatib berish;

Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki: birinchidan, biz bugun ochiq demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etayotgan bir paytda, tadqiqot ishimiz siyosiy partiyalarning davlat hokimyatidagi rolini mamlakatimizda yashayotgan har bir fuqaroga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Ikkinchidan, «Siyosiy partiya», «ko'ppartiyaviylik», «muxolif partiya», «o'ng va so'l partiyalar», «ko'ppartiyaviylik madaniyati» kabi tushunchalar to'g'risidagi bilimlarimizni yanada oshiradi; uchinchidan, huquqiy davlat qurishda siyosiy partiyalarning rolini aniglab yetishda yordam beradi; to'rtinchidan, bugungi kunda O'zbekistonda mavjud siyosiy partiyalarning maqsadlarini bilib olishimizda katta ahamiyat kasb etadi; beshinchidan, jamiyatimizda ko'ppartiyaviylik madaniyatini shakllantirish,

mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish omili ekanligini ilg'ab olishda ta'sirchan ahamiyatga egadir.

Bundan tashqari oily ta'lim muassasasida o'qitiladigan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish", o'quv kursi "Fuqarolik jamiyati asoslari", "Siyosatshunoslik", "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanlaridan tegishli ma'ruzalarni o'qitishda foydalanish mumkin.

Bakalavrlik bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. Mazkur bakalavrlik bitiruv malakaviy ishimiz- kirish, ikkita bob, beshta reja, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

BOP-I. Jamiyat tizimida siyosiy partiyalarining urni.

1.1. Partiyalarning tushunchasi, belgilari va turlari.

«Partiya» soʻzi lotincha «part» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, «ish», «qism» degan maʼnolarni anglatadi. Siyosiy partiya — fuqarolarning eng faol, mushtarak mafkura asosida bogʻlangan, davlat hokimiyatini qoʻlga kiritish, uni saqlab qolish va amalga oshirishga intiluvchi qismi, ixtiyoriy ittifoqi.

Siyosiy partiyalar quyidagi asosiy belgilarga ega:

- ularning siyosiy hayotda faol ishtirok etishi;
- aʼzolikning va ushbu partiya tayanadigan muayyan ijtimoiy qatlamning mavjudligi;
- siyosiy dastur va nizomga ega boʻlishi;
- partiyaga birlashgan kishilarning umumiy manfaatlarga va bir-biriga yaqin boʻlgan mushtarak mafkuraviy qarashlarga ega boʻlishi;
- bir yoki bir necha siyosiy etakchilarning mavjudligi.

Siyosiy partiyalar tipologiyasi birinchi marta XX asr oʻrtalarida frantsuz siyosatshunosi M.Dyuverje⁷ tomonidan ishlab chiqilgan. Unga binoan partiyalar ikki tipga boʻlinadi:

1. "Quyi"dagi saylov qoʻmitalari va "yuqori"dagi parlament guruhlari rivojlanishining hosilasi oʻlaroq kadrlar partiyalari;
2. Umumiy saylov huquqi hosilasi oʻlaroq ommaviy partiyalar (M.Dyuverje bu partiyalarni istiqbolli model` partiyalari deb ham ataydi). Mazkur ikki xil partiyalar fuqarolar bilan partiyalarni boglab turuvchi aloqalari va oʻz ichki tuzilmalari bilan bir-biridan farq qiladi.

Kadrlar partiyalari XIX asr oʻrtalaridan boshlab shakllangan. Bu partiyalar oʻz aʼzolari sonining kamligi, aniq ifodasini topmaganligi

⁷ Дюверже М. Политические партии / Пер. с франц. — М.: Академический Проект, 2000.

(amorfligi), a`zo bo`lishning erkinligi, taniqli siyosatchilar va partiyaning moddiy qo`llab-quvvatlovchi moliya elitalariga tayanishi bilan farqlanib turadi. Bu partiyalar elektoral funktsiyalarni bajarishga moyil turadi. Ularda parlament a`zolari ustuvor ahamiyatga egadir. Mazkur partiyalar elita xarakteriga ega bo`lganligi uchun ko`proq o`nga og`adi hamda liberal va konservativ partiyalar sifatida ham namoyon bo`ladi.

Odatda ommaviy partiyalar parlamentdan xoli tarzda shakllanadi. Bu partiyalar o`zining ijtimoiy bazasini aholining kuni tabaqalaridan tanlaydi, shuningdek, ilk bor ijtimoiy harakatlar sifatida namoyon bo`ladi. Uning tarkibini asosan ishchilar, dehqonlar va turli xil diniy guruhlar tashkil etishi mumkin. Bu partiyalarning tashkiliy tuzilishi hali ular saylov kompaniyalarida ishtirok etmasdan va parlamentga nomzodlar ko`rsatish faoliyatini boshlamasdan ilgari tarkib topadi.

Agar partiya a`zolari bilan ularning saylovchilari yoki partiya faollari bilan partiya a`zolari o`rtasidagi muvozanatning o`zgarishiga razm solsak, partiya a`zolarining saylovchilarga hamda faollarning partiya a`zolariga bo`lgan nisbati ortib borgan sayin tashkilot ommaviy partiya turiga o`ta boshlaganini ko`rish mumkin. Agar bu nisbat teskari tomonga qarab o`zgara boshlasa, mazkur tashkilot kadrlar partiyasi tipiga o`ta boshlaydi. Keyinchalik M.Dyuverje o`z sxemasiga o`zgartirishlar kiritib, ommaviy bilvosita partiyalar ham mavjudligini tan oldi (masalan, Angliyada leyboristlar partiyasi a`zoliligiga nomzod dastavval kasaba uyushmasiga a`zo bo`ladi, so`ngra u o`z xohishiga binoan avtomatik ravishda Britaniya leyboristlar partiyasi - BLP a`zosi bo`lishi mumkin).

Ommaviy partiyalar dastavval o`z siyosiy vositalari muayyan dasturlarga egaligi bilan ajralib turadi. Bu tipdagi partiyalar ko`proq so`l yo`nalishga moyildir. Shuning uchun ham ko`plab dehqonlar va diniy oqimlar partiyalari ommaviy partiyalar sifatida siyosiy maydonga chiqadi. Ommaviy partiyalarning yana bir muhim xususiyati, bu - uning o`ta mafkuralashganligidir. Bu partiyalar mafkuralardan ommaviy-siyosiy safarbarlik vositasi sifatida foydalanadilar. Partiya a`zolari nafaqat a`zolik

badallarini to'laydilar, balki partiya faoliyatida faol ishtirok etadilar. Bunday tipga kommunistik, sotsialistik va sotsial-demokratik yo'nalishdagi so'l partiyalar misol bo'la oladi.

Ommaviy partiyalar ko'psonliligi bilan xarakterlanadi. Bu partiyalar kadrlar partiyalaridan keyingi davrlarda, ya'ni umumiy saylov huquqi keng tarqalishi natijasida ishchilar harakati to'liqligida tashkil topdi. Mazkur partiyalar ko'proq mafkuraviy va tarbiyaviy faoliyat ko'rsatadilar.

Bu partiyalar tipologiyasini J.Blondel⁸ ancha boyitdi⁸. Unga muvofiq ommaviy partiyalar g'arb tipidagi ommaviy vakillik partiyalari, kommunistik va populistik tiplarga bo'linadi. R.J.Shvartsenberg esa ular ichidan sotsialistik va fashistik modelga ega partiyalarni ham ajratib, tahlil qilib berdi. Sotsialistik va sotsial-demokratik partiyalarning bosh vazifasi saylov kampaniyalari davrida ishchilar orasidan nomzodlar tanlab ko'rsatishdir. Bu partiyalar elita partiyalari va yirik mulkdorlar ta'siridan qutilish uchun o'z faoliyatlarini xususiy moliyalashtirishdan voz kechib, o'z-o'zini jamoaviy mablag' bilan ta'minlash shakliga o'tmoqdalar.

Kadrlar partiyalarining asosiy vazifasi saylov okruglarida (mafkuraviy yo'nalishidan qat'iy nazar) aholining turli qatlamlari orasidagi saylovchilarni jalb qila olishga qodir bo'lgan obro'-e'tiborli shaxslarni saylov kampaniyalariga safarbar qilish hisoblanadi. Ommaviy partiyalar miqdor bilan erishadigan muvaffaqiyatlarni kadrlar partiyalari sifat bilan, ya'ni saylov kampaniyasini samarali uyushtirishga qobiliyatli kadrlarni safarbar etish asosida qo'lga kiritadi. evropadagi ko'pchilik konservativ yo'nalishga ega partiyalar ham shu tamoyilga amal qiladi. AQShdagi respublikachilar va demokratlar partiyalari o'zida ham ommaviy, ham kadrlar partiyalari xususiyatlarini namoyon etadilar. Shuning uchun ularni gibrid partiyalar deb ham ataydilar.

Ba'zan partiyalar bir qancha partiyalarning o'ziga xos birlashuvi shaklida namoyon bo'ladi. Bunga misol tariqasida "Frantsuzcha

⁸ Блондель Ж. Политическое лидерство: Путь к всеобъемлющему анализу
М.: Российская академия управления, 1992.

demokratiya uchun" ittifoqini keltirib o'tish mumkin. Bu ittifoq tarkibida beshta partiya va guruhlar faoliyat ko'rsatadi. Shu sababli Frantsiyada ko'plab partiyalar o'zlarini "partiya" emas, balki "uyushma", "ittifoq", "harakat" deb ataydilar.

Partiyalarni bir-biridan farqlovchi me'yorlardan yana biri unga a'zolik hisoblanadi. Partiyaga a'zolik maqomi uzoq davrlar davomida noaniq bo'lib keldi. Ba'zi partiyalar hozirga qadar o'z a'zolari bilan partiyalarini saylovlarda qo'llab-quvvatlovchi kishilar o'rtasidagi muhim farq yo'qligini ifoda etib kelmoqda. Hattoki, evropadagi liberal va konservativ yo'nalishdagi partiyalar o'z a'zolari sonini aniq ayta olmaydi.

Ko'plab davlatlarda o'zini biron-bir partiyaning a'zosi dsb hisoblaydigan fuqarolar mazkur mamlakat aholisining juda ozchilik qismini tashkil etadi.

Kommunistik partiyalardagi ortiqcha markazlashuv na avtoritarizm ularning butun bir jamiyatga nisbatan gegemonlik va liderlik qilishga da'vogarligi tabiatidan kelib chiqadi. Fashistik partiyalar ko'proq sobiq harbiy xizmatchilar harakati asosida shakllanib, ular o'z faoliyatlarida ommani siyosiy safarbar qilishda harbiy vositalardan foydalanadilar. Ular asosan kuch ishlatishga va shafqatsiz usullardan foydalanib, demokratiyani toptashga harakat qiladi.

60-yillarga kelib bu tipologiyalar yangi tipdagi partiyalar paydo bo'lishi va siyosiy voqeliklar o'zgarishi natijasida hayotga uncha muvofiq kelmay qoldi. Bu partiyalar J.Sartori talqiniga binoan "yovuz", "hammani qamrovchi", "hammani tutib turuvchi", "ommaviy-elektoral", J.Sharlo atamasiga ko'ra "saylovchilar partiyasi", J.Shvartsenberg fikricha esa "funktional partiyalar", "saylov partiyasi", "to'plamdan iborat partiya" kabi nomlarni oldilar⁹.

Boshqa ommaviy partiyalardan farqli o'laroq, mazkur partiyalar o'z a'zolariga nisbatan o'z saylovchilariga ko'proq e'tibor berib, tartib va

⁹ Сартори Д. Искажение концептов в сравнительной политологии (III) . – Полис. Политические исследования. 2003.

imtizomni mustahkamlashga ahamiyat beradilar. Ko`proq ommaviy populistik tadbirlar-manifestatsiyalar o`tkazishga moyil bo`ladilar.

Shunday tipdagi partiyalar borki, ularning a`zolari partiya biletiga ega bo`ladilar, a`zolik badallarini to`laydilar; ba`zilarida esa rasmiy a`zolik mavjud emas. Birinchi tipdagi partiyalarga misol tariqasida kommunistik partiyalarni ko`rsatish mumkin. Ikkinchi tip uchun esa AQShdagi respublikachilar va demokratlar partiyalari, Buyuk Britaniyaning konservativ partiyasini misol keltirish mumkin. Partiyalar to`g`ridan-to`g`ri a`zolikka qabul qilish yoki, aksincha, unga ommaviy kirish bilan ham farqlanadi. Birinchi holatda nomzod yakkama-yakka tartibda qabul qilinadi. Ikkinchi holatda esa, partiya bilan aloqador bo`lgan biron-bir tashkilot a`zosi o`z-o`zidan partiya a`zosi bo`lib qoladi. Masalan, Buyuk Britaniya leyboristlar partiyasiga, Shvetsiya, Norvegiya va Irlandiya sotsial-demokratlar partiyalariga kasaba uyushmalariga a`zo bo`lgan ishchi va xodimlar jamoaviy tarzda kiradilar, kasaba uyushmalari bu partiyalarning jamoaviy a`zolari hisoblanadi. Kommunistik partiya uchun esa to`g`ridan-to`g`ri a`zolik xos bo`lib keldi.

Partiya tizimini tipologiyalashtirish mamlakatdagi mavjud partiyalarning soniga qarab ham amalga oshiriladi. Bu tamoyilga ko`ra bir partiyaviylik, ikki partiyaviylik va ko`p partiyaviylik tizimlar bir-biridan ajralib turishini kuzatish mumkin.

Ko`p partiyaviylik tizimida har bir partiya o`ziga xos g`oyaviy-siyosiy yoki mafkuraviy mavqe va yo`nalishga ega bo`ladi. Unga binoan ayrim partiyalar o`ta "so`l" yoki "o`ng" bo`lishi mumkin. Qolgan partiyalar esa "o`ng" va "so`l" partiyalar o`rtasidagi oraliq o`rinni egallaydilar. Ko`p partiyaviylik tizimida hech bir partiya saylovchilar mutlaq ko`pchiligining qo`llab-quvvatlashiga erisha olmaydi. Boshqaruvning parlament shaklida bo`lgan bu tizimda ko`pincha koalitsion hukumat tuzish taqozo etiladi. Bu tizimda biron-bir partiya butun millat yoki uning asosiy qismi vakili sifatida siyosiy maydonga chiqa olmaydi. Shuning uchun bu tipdagi partiyalar boshqa partiyalarning qo`llab-quvvatlashisiz hukumatni

shakllantirishga ham erisha olmaydi. Bunday holatlar ba`zan parlament koalitsiyasining beqarorligiga, hukumatni esa turli siyosiy oqimlar manfaatlari ifodachisi bo`lishiga olib keladi.

Ikki partiyaviylik tizimdagi saylovlar natijasida parlamentda ko`proq o`rinni qo`lga kiritgan yoki hokimiyatning ijroiya shahobchasi uchun saylovlarda xalqning ko`proq ovozini olishga erisha oladigan ikkita katta partiya xokimiyat uchun kurash yakunlarini hal qiladi. Shuningdek, ikki partiyaviylik tizimi boshqa partiyalarning ham faoliyat ko`rsatishini inkor etmaydi.

Ko`p partiyaviylik tizim ko`pchilik rivojlangan va sanoatlashgan mamlakatlar uchun xosdir. Bitta partiyaning uzoq davr ustunligi kuzatilgan Yaponiya jamiyati ham ko`ppartiyaviylik tizimga kiradi. Shuning uchun bu mamlakatdagi tizimni bir partiyaviylik tizim bilan adashtirmaslik lozim.

Mukammal bo`lmagan ikki partiyaviylik tizim Italiyada kuzatiladi. Chunki, bu mamlakatda urushdan so`nggi davrda deyarli ikkita katta, ya`ni xristian-demokratlar va kommunistik partiyalar katta mavqelarni egallab keldi. Birinchisi doimo hokimiyat tepasida, ikkinchisi esa, muxolifat sifatida faoliyat ko`rsatib kelayotganligini kuzatish mumkim. Yaponiyada ham liberal demokratlar partiyasi ustunlik qilib, ular kommunistlar va sotsialistlarni hokimiyatga yaqinlashtirmay keldi. 1993 yil o`rtasiga kelib sakkiz partiyadan iborat hukumat tuzilishi bilan bu an`anaga ham barham berildi. U yoki bu partiya tizimining shakllanishida har bir mamlakatning tarixiy, milliy-madaniy va boshqa omillari muhim rol` o`ynaydi. Bundan tashqari o`sha mamlakatda tarixan shakllangan siyosiy tizim ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, AQSh va boshqa ko`plab mamlakatlarda prezidentlik hokimiyati va institutining ta`siri kattadir. Shu sababli hech bir partiya prezident saylovlari ustidan nazorat o`rnatmay turib o`z strategik maqsadlariga erisha olmaydi. Bunday nazorat, albatta, ko`pchilik saylovchilarning qo`llab-quvvatlashlarini talab qiladi.

O`zbekistonda siyosiy partiyalar-Bugungi kunda, O`zbekistonda beshta siyosiy partiya rasman ruyxatdan o`tgan holda faoliyat olib bormoqda, bular: O`zbekiston Xalq demokratik partiyasi; “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi va O`zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va Uzbekiston Ekologik partiya.

- O`zbekiston Xalq demokratik partiyasi (O`zXDP) – 1991 yilda O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng tashkil qilingan birinchi siyosiy partiya. Mazkur partiyani ko`p jihatdan sobiq kommunistik partiyaning merosxo`ri sifatida ham e`tirof etadilar. O`zXDP 1991 yil 1 noyabrda rasman ro`yxatga olingan. Rasmiy ma`lumotlarga qaraganda bugungi kunda partiyaning a`zolari soni 425 mingga yaqin. Joylarda partiyaning 11 mingdan ortiq boshlang`ich partiya tashkilotlari faoliyat olib boradi. O`zXDP markaziy kengashi raisi – Xotamjon Ketmonov. Partiya ustavida uning asosiy maqsadi – davlat hokimiyatining vakillik organlarida davlat va jamiyat tomonidan manzilli ijtimoiy himoya va ijtimoiy qo`llab-quvvatlashga ehtiyojmand aholi qatlamlari manfaatlarini himoya qilishdan iborat ekanligi belgilab qo`yilgan. Partiyaning matbuot organi – “O`zbekiston ovozi” va “Golos Uzbekistana” gazetalari.

- “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi – 1995 yil 18 fevralda tashkil topgan. Bugungi kunda 135 ming a`zosi bor. Respublika hududlarida 3 mingga yaqin boshlang`ich partiya tashkilotlariga ega. Partiya siyosiy kengashining raisi – Narimon Umarov. Matbuot organi – “Adolat” ijtimoiy-siyosiy gazetasi. Partiya ustavida belgilangan asosiy maqsadi – huquqiy-demokratik davlat, ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish hamda O`zbekiston hududida yashayotgan barcha millat va elatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan, fuqarolarning qonun oldida tengligi, birdamligi, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari ta`minlangan ma`naviy jipslashgan jamiyatni shakllantirishda faol ishtirok etish deya belgilangan.

- “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi – 2008 yil 20 iyunda Milliy tiklanish va Fidokorlar partiyalarining birlashuvi asosida shakllangan. Partiyaning aʼzolari soni 190 mingga yaqin. “Milliy tiklanish” partiyasi markaziy kengashi raisi – Sarvar Otamuradov. Partiya ustaviga muvofiq asosiy maqsadi – Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarida milliy oʻzlikni anglashning oʻsishi, milliy gʻurur, vatanga sadoqat va muhabbat tuygʻusini shakllantirish hamda mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish ekanligi taʼkidlanadi. Siyosiy partiyaning matbuot organi – “Milliy tiklanish” gazetasi.

- Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasi (OʻzLidep) – 2003 yilning 15 noyabrida tuzilgan. Partiya oʻzining asosiy maqsadi sifatida – tadbirkorlar, ishbilarmonlar va fermerlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning mazkur qatlami manfaatlarini himoyalash va ertangi kunini taʼminlash ekani qayd etiladi. OʻzLidepning aʼzolari soni 252 ming nafarni tashkil etadi. Partiya siyosiy kengashi raisi – Aktam Xaitov. Matbuot organi – “XXI asr” ijtimoiy-siyosiy gazetasi.

-Oʻzbekiston Ekologik partiyasi-2020yili tuzilgan. Partiya oʻzining asosiy maqsadi sifatida – fuqarolarning hozirgi va kelgusi avlodi qulay atrof-muhit sharoitida yashash, aholi salomatligini yaxshilash, barcha tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish huquqlarini hamda ularga soʻzsiz rioya etilishini taʼminlashga qaratilgan yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishda jamiyatning bor kuch va salohiyatini safarbar qilishga intiladi.

Bugungi kunda, mazkur siyosiy partiyalar Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda viloyat, tuman va shahar vakillik organlarida oʻz deputatlik mandantlariga ega. Quyidagi jadvallarda ularning taqsimotini koʻrish mumkin. Soʻngi yillarda, Oʻzbekistonda koʻppartiyaviylik tizimini shakllantirish va faoliyati samaradorligini oshirish borasida etarlicha huquqiy asoslar yaratildi deyishimiz mumkin.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risidagi", "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risidagi", "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risidagi", "Siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalashtirish to'g'risidagi", "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risidagi" qonunlarini alohida takidlash lozim¹⁰.

Bundan tashqari, 2018 yilning 4 oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Saylov jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, respublikada Saylovchilarning yagona elektron ro'yxatini shakllantirish hamda barcha darajadagi saylovlar tizimiga Saylov jarayonini boshqarish axborot tizimini ishlab chiqish va joriy qilish vazifalari belgilab berildi.

Shuningdek, amaldagi siyosiy partiyalarning 1994 y, 1999 y, 2004 y, 2009 y. va 2014 yillardagi Oliy Majlis va xalq deputatlari mahalliy kengashlariga bo'lib o'tgan saylovlarda ishtiroki va saylovlar jarayonida orttirilgan o'ziga xos tajribasi ham O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining rivojiga ijobiy ta'sir etadi. Lekin, shuning bilan birga, bugungi kunda, mamlakatda siyosiy partiyalar faoliyati va ularning tom ma'nodagi fuqarolik jamiyati institutiga aylanishi borasida bir qancha fundamental muammolar mavjud. Bular sirasiga:

Birinchidan, amaldagi siyosiy partiyalar o'z harakati va faoliyati jihatidan jamiyatdan, elektoratdan uzilib qolgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Siyosiy partiyalar dasturlarida individuallik va raqobatni ko'ra olmaymiz. Mazkur partiyalar rasmiy hukumat tomonidan olib borilayotgan siyosatga nisbatan muqobil dastur va modellarni ilgari surish qobiliyatiga ega emas. Shuni ta'kidlash lozimki, har qanday siyosiy partiya zamon bilan

¹⁰ Мамадалиев Ш.О. Ўзбекистон сиёсий партиялари: шаклланиш жараёнлари ва ривожланиш истиқболлари. – Т., Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси. – 2004. – 52 б.

hamnafas bo`lib, uning o`tkir talablariga javob bergan taqdirdagina siyosiy kuch sifatida yashay oladi;

Ikkinchidan, eng asosiy muammolardan yana biri bu haligacha siyosiy partiyalarning ijtimoiy asosi – elektorati to`liqligicha shakllantirilmagani hisoblanadi. Shuningdek, amalda siyosiy partiyalar bilan, ular o`z elektorati deya e`lon qilgan, ijtimoiy guruhi o`rtasida “qayta aloqa” tizimi mavjud emas. Ijtimoiy hayotimizda shunday omil ko`zga tashlanadi-ki, bugungi kunda, go`yoki siyosiy partiyalar o`z hayotida, elektorat esa o`z hayoti bilan yashamoqda;

Uchinchidan, hozirgi kunda, siyosiy partiyalar tashkilotlarida kadrlar muammosi juda dolzarbligicha qolmoqda. Partiya tizimida hali-xamon yoshi o`tgan va eskicha fikrlaydigan parttashkilotchilar faoliyat olib bormoqda. Oylik maoshining pastligi, partiya tashkilotlari tizimida o`rnatilgan byurokratik tizim va boshqa faktorlar sababli yosh, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko`nikmalarga ega kadrlar siyosiy partiyalar tizimiga kelishmayapdi;

To`rtinchidan, eng asosiy muammolardan yana biri bu – siyosiy partiyalarning o`zida demokratiyaning sustligidir. O`zlarini “demokratik” partiya deya e`lon qilgan mazkur siyosiy partiyalarning faoliyatida demokratiyaga xos bo`lmagan kayfiyat ustuvorligini kuzatish mumkin. Bular, partiya boshqaruv organlari saylovida, siyosiy partiyadan deputatlikka nomzodlarning ko`rsatilishida, partiya tizimida o`rnatilgan chuqur vertikal munosabatlarda yaqqol ko`rinadi. Mazkur holatlar esa, aslida jamiyatda demokratiyani mustahkamlashga qaratilgan fuqarolik jamiyati instituti hisoblanmish – siyosiy partiyalarning xalq oldidagi imidjini tushishiga olib kelishi shubhasiz.

1.2. Partiya funksiyalari va ularning jamiyat rivojlanishida tutgan o`rni

Partiyalarning eng muhim maqsadi, bu - manfaatlarini o`zlari qondirishi lozim bo`lgan ijtimoiy qatlamlar vakolatlarini siyosiy tizimda ifoda etishdir. Partiyalar turli ijtimoiy guruhlar, qatlamlarning manfaatlar vakolatlarini jamiyatning siyosiy tizimida ifoda etish yo`li bilan davlat bilai jamiyat o`rtasidagi bog`lovchilik va vositachilik funksiyalarini bajaradi, shu bilan bir vaqtda ular jamiyatning yaxlitligi va bir butunligini ta`minlaydi. Davlat tizimidagi turlicha: ba`zan musbatlashib, ba`zan manfiylashib turadigan manfaatlarni manfaatlar guruhlar, jamoat tashkilotlari va partiyalarsiz nazorat qilib bo`lmaydi. Siyosiy partiyalar u yoki bu manfaatlarni ifoda etibgina qolmasdan, bu manfaatlarni shakllantirishda ham bevosita faol ishtirok etadi. Partiyalar fuqarolik jamiyatini davlat bilan uygunlashtirib, murosasizliklarni yo`qotish yoki yumshatishni ta`minlaydi, qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyatlarining barqarorligini saqlashga o`z hissasini qo`shadi. Kuchli partiyalar davlatni kuchsizlantirmaydi, balki ular davlatni jamiyatning mahalliy organlari bilan mustahkam bog`lab, siyosiy jarayonlarni nazorat qilishga yordamlashadi.

Klaus fon Boyme siyosiy partiyaning to`rtta funksiyasini ajratib ko`rsatadi: 1) maqsadlarni aniqlash; 2) ijtimoiy manfaatlarni kuchaytirish va ifodalash; 3) tizim miqyosida, ayniqsa, saylovlarda jamoatchilikni safarbar etish va ularning ijtimoiylashuvini ta`minlash; 4) elitani tanlash va hukumatni shakllantirish¹¹.

Ba`zi siyosatshunoslar partiyaning "konkret funksiyalari" doirasini yanada kengaytirib, ularning sonini to`qqiztaga etkazadilar. Masalan, ular partiyaning quyndagi funksiyalarini sanab o`tadi: millatning hayotiy manfaatlarini ifodalovchi jamoatchilik fikrini shakllantirish; saylovlar jarayonida saylovchilarni partiya nomzodlariga ovoz berish uchun safarbar etish; "jamoatchilik fikrini tarbiyalash" va "siyosiy ijtimoiylashuvni amalga

¹¹ Бейме, Клаус фон. Будущее парламентской демократии // Мир политики. — М., 1992.

oshirish jarayonida umumta'limiy rolini" yanada faolroq bajarish, "parlament va butun mamlakat o'rtasidagi siyosiy aloqalarning uzluksizligini ta'minlash"; boshqa siyosiy institutlar bilan birgalikda davlat va ijtimoiy boshqaruv mexanizmini shakllantirish, hukumat organlarining barqarorligini ta'minlash; hukumat tarkibining davomli almashib turishi uchun ikki va ko'p partiyali tizimlar vositasida qulay shart-sharoitlar yaratish va hokazo.

G'arb mualliflarining partiyalar haqidagi fikrlari rang-barang bo'lishiga qaramay, ular funktsiyalarini umumiy ijtimoiy-siyosiy jihatlardan tavsiflash, bu funktsiyalarning haqiqiy ijtimoiy mohiyatini ochib berish maqsadida ularning turlicha nuqtai nazarlarda ta'riflangan xususiyatlarni e'tiborga olgan holda guruhlash imkoniyati tug'iladi. Eng avvalo dastlabki ikki guruh funktsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan partiyaning bosh funktsiyasi, ya'ni ma'lum ijtimoiy manfaatlar bilan bog'liqlikni ifodalovchi - manfaatlarning vakillik funktsiyasi ajralib turadi.

G'arb siyosatshunoslari bir tomondan siyosiy partiyalar, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy qatlamlar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi bog'liqlikni, aloqadorlikni tan olsalarda, bu qarashlardan farq qiluvchi boshqa yondashuvlar ham borligini kuzatish mumkin. Adabiyotlarda bu kabi aloqadorliklar mavjudligini inkor etish yoki bu haqda hech qanday fikr bildirmaslik keng tarqalgan nuqtai nazar hisoblanadi. Misol tariqasida taniqli amerikalik siyosatshunos D.Apterning izlanishlariga murojaat qilish mumkin: "Partiyalar jamoatchilik va hukumat o'rtasida ularni bog'lab turuvchi bo'g'in hisoblanadi. Partiya ko'pchilik kishilar qo'llab-quvvatlaydigan manfaatlar va e'tiqodlar majmuasidan iboratdir. Ular ochiqchasiga raqobatlashish bilan mashg'ul bo'lib, bu bilan tizimning harakatchanligini ta'minlaydilar"¹². Shuningdek, muallif shakllangan

¹² Аптер Д. И. Сравнительная политология вчера и сегодня. Политическая наука: новые направления (ред. Р. Гудин, Х-Д. Клингеманн). М. , 1999.

partiyaning birlamchi funktsiyasi va asosiy vazifasi saylovlarda g'alabani ta'minlash ekanligini ham ta'kidlaydi.

Siyosiy partiyalar jamiyat bilan siyosiy munosabatlarni integratsiya qilib, ularning bo'linmas bir butunligini ta'minlaydi. Lekin siyosiy partiyalarning liberal demokratik tizim bilan avtoritar va totalitar tizimlardagi funktsiyalari bir-biridap farq qiladi. Totalitar tizimda yakkahokim partiya davlat tizimlari bilan birlashib, chirmashib ketadi. Demokratik jamiyatda esa turli raqobatdosh partiyalar o'z ko'lamlari darajasida harakat qiladilar. Demokratik partiyalar mintaqaviy va mahalliy tizimlar hamda jamoaviy birliklar bilan mustahkam aloqada bo'lib, ular umummilliy maqsadlar ruhini dastlab shu hududlardan oladi. Qolaversa, partiyalarning bir-biri bilan raqobatdoshligi tufayli umummilliy siyosiy tizimlar barcha guruhlardan va mansabdorlardan (ular qanchalik katta lavozimlarni egallamasin) yuqori qo'yiladi. Shu tariqa siyosiy tizim bilai alohida mansabdorlar o'rtasiga aniq chegara qo'yiladi.

Siyosiy partiyalarning jamiyatda ichki va tashqi funktsiyalari bor. Ichki funktsiyalar - partiyaga a'zolar jalb qilish, partiya hayotini moliyalashtirish, mulkiy va boshqa munosabatlarni muvofiqlashtirish, boshlangich tuzilmalar va oddiy a'zolar bilan partiya elitasi munosabatlarini yo'lga qo'yish kabi yo'nalishlardir.

Siyosiy partiya – bu jamiyatdagi ma'lum bir guruhlar, toifalar, qatlamlarning qiziqishlarini aks ettiradigan hamda davlat hokimiyatini tashkil etish va davlat ishlarida qatnashish orqali ularni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadigan kishilarning birligini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, siyosiy partiyalar mamlakatdagi muayyan aholining yoki guruhlarining manfaatlarini, maqsadlarini va intilishlarini ifodalaydigan hamda qonuniy vositalar yordamida ularni davlat siyosati darajasiga ko'tara oladigan jamiyatdagi yagona kuch hisoblanadi.

Aynan mana shu jihati, ya'ni siyosiy hayotda bevosita ishtirok qilish orqali o'z manfaatlarini ifodalashi bilan siyosiy partiyalar boshqa jamoat tashkilotlaridan farqlanadi. Konstitutsion normaga asosan jamiyatimizda

tub ma`nodagi ko`ppartiyaviylikni shakllantirish uchun 1996 yil 26 dekabrda “Siyosiy partiyalar to`g`risida”gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonunning 1-moddasiga asosan, “siyosiy partiya – qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari mushtarakligi asosida tuzilgan, jamiyat muayyan qismining davlat hokimiyatini shakllantirishdan iborat siyosiy irodasini ro`yobga chiqarishga intiluvchi hamda o`z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi O`zbekiston Respublikasi fuqarolarining ko`ngilli birlashmasidir”¹³.

Siyosiy partiyalar to`g`risidagi ushbu qonunda, siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko`rsatish printsiplari, ular faoliyatining kafolatlari, ularni tuzish tartibi, nizomi, ro`yxatga olish, faoliyatini to`xtatish tartibi, ularning huquqlari, vakillik organlaridagi partiya fraktsiyalari, guruhlarining maqsadi, vazifalari to`liq ko`rsatib berilgan. Siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida, xohish-irodani erkin bildirish, partiya ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, a`zolarining teng huquqliligi, o`zini o`zi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik asosida tuziladi va faoliyat ko`rsatadi.

Siyosiy partiyalarning davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatiga aralashuviga yo`l qo`yilmaydi. Siyosiy partiya tashkilotlarining tadbirlari asosan a`zolarining ishdan tashqari vaqtida va ana shu partiyalar mablag`i hisobidan amalga oshiriladi. Siyosiy partiyaning tuzilish uchun kamida sakkizta hududiy sub`ektda (viloyatda), shu jumladan, Qoraqalpog`iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiya birlashish istagida bo`lgan kamida yigirma ming fuqaroning imzosi bo`lishi talab etiladi. Siyosiy partiyalar O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro`yxatga olinadi¹⁴.

¹³ Ўзбекистон Республикаси “Сийсий партиялар тўғрисида” ги Қонуни. 337-І-сон, 26.12.1996.

¹⁴ Янгибаев А. Сийсий партияларнинг давлат ҳокимияти вакиллик органларини шакллантиришда ва уларнинг фаолиятида иштирок этиши // Юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. –Т., 2019. – Б.11.

Agar siyosiy partiyaning ustavi, maqsadlari, vazifalari va faoliyat uslubi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hamda boshqa qonun hujjatlariga zid bo'lsa yoki oldinroq xuddi shunday nomdagi siyosiy partiya yoki jamoatchilik harakati ro'yxatga olingan bo'lsa, bu partiya ro'yxatga olinmaydi.

Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga egadirlar: o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish;

saylab qo'yiladigan davlat organlaridagi o'z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish;

qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish;

partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishlar, konferentsiyalar va boshqa tadbirlarni o'tkazish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta'sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraktsiyalari siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan deputatlarning ta'sis yig'ilishida o'z partiyasining siyosatini uyushqoqlik bilan o'tkazishi uchun tuziladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda davlat hokimiyati mahalliy vakillik organlaridagi partiya guruhlar siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan deputatlar ta'sis yig'ilishlarida o'z partiyasining siyosatini uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun tuziladi. Partiya guruhlar partiya guruhining rahbari bergan ariza yoki ta'sis hujjatlariga asosan tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan ro'yxatga olinadi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi siyosiy partiyalarning faoliyati O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasiga, qonun hujjatlariga va o'z ustavlariga muvofiqligini nazorat qiladi.

Tashqi funktsiyalarga esa hokimiyatni egallash uchun kurash, hokimiyat tepasiga kelganda o'z dasturini amalga oshirish, xalqaro partiyaviy munosabatlar o'rnatish, xalq bilan davlat tizimlari aloqalarini ta'minlash, xalqning siyosiy madaniyatini oshirish, siyosiy liderlar tanlash va tayyorlash, ular vositasida jamiyatning boshqaruv tizimlarida ishtirok etish, siyosiy jarayonlarning boshqa ishtirokchilari bilan o'z manfaatlarini uyg'unlashtirish, fuqarolarni siyosiy ijtimoiylashtirish kabilar kiradi.

Partiyalarning o'z funktsiyalarini amaliyotda bajarishlarining asosiy usuli, bu - saylovlar kampaniyasi davrida partiya, davlatning qonun chiqaruvchi organlariga saylanishlari uchun o'z nomzodlarini ko'rsatishlaridir. Bu nomzodlarning saylanishlariga erishish uchun partiya faollari aholining ko'pchilik qisminn o'e tomoniga og'dirishi, saylovchilar o'rtasida tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borishi lozim. Ayniqsa, bu davrda jamoatchilik fikriga ta'sir qila olish qobiliyatiga ega bo'lish partiyaning eng asosiy maqsadidir.

Shu bilan birga, partiyalar o'zining kelajak siyosati, dasturi, mafkurasi yo'nalishlarini xalqda qiziqish uygotadigan shakllarda xalq ruhiyatiga singdira bilishi - partiyaning saylovlarda galabaga erishishining kafolatlaridan biridir. Partiya o'zining maqsadlari o'zi amal qiladigan qadriyatlarni e'lon qilganida (u o'zining ko'pchilik saylovchilar ovozini ololmasligini anglasa ham), mafkuraviy maqsadlarda har bir saylov kampaniyasidan unumli foydalanishga harakat qiladi.

Qonun chiqaruvchi organlarga o'z vakillarining ko'plab saylanishiga erishgan partiya idora qiluvchi elitani shakllantirish, boshqaruv organlarining rahbarlik lavozimlariga nomzodlar tayyorlash va ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Partiya eng avvalo ana shu o'zi tayyorlagan va o'zi nomzodlarini ko'rsatgan deputatlar, shuningdek, boshqaruv lavozimlaridagi mansabdorlar vositasida siyosiy qarorlar qabul qilish

jarayoni va uni nazorat qilishda ishtirok etish uchun legitim huquqqa ega bo`ladi.

Saylovlardan keyingi partiya faoliyati turli xil partiyalararo bitimlar tuzish, hukumatni shakllantirish jarayonida ishtirok etish, turli oqimlar va partiyalar bilan bloklar hamda ittifoqlar tuzishdan iborat bo`ladi. Saylovlar partiya faolliyatining eng faol davri bo`lsa ham, saylovlarda g`alabaga erishgan partiya axolini o`z siyosiy yo`lini barqaror ravishda xalq tomonidan qo`llab-quvvatlashga erishish uchun harakat qiladi. Partiya faollarn tomonidan, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida xukumat olib borayotgan ichki va tashqi siyosatini qo`llab-quvvatlash uchun turli kampaniyalar va tadbirlar o`tkazib turadi.

Partiyalarning asosiy funktsiyalaridan yana biri saylov tizimida fuqarolarning siyosiy ishtirokini ma`lum bir shaklga solish va institutlashtirish, o`z-o`zidan, stixiyali, norasmiy, ko`pincha noqonuniy ravishda kelib chiqqan siyosiy harakatlar shakllarini qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolat talablariga xos shaklga solish, bu jarayonlarni an`anaga aylantirishdir.

BOP-II. Demokratik islohotlarini chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish masalalari.

2.1.Siyosiy partiyalarning demokratik islohotlarini chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishdagi roli va ahamiyati.

Ma`lumki, mamlakatimizda ko`ppartiyaviylik tizimini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, partiyalararo raqobat muhitini shakllantirish masalalariga alohida e`tibor qaratilmoqda. Davlat hokimiyatida vakillik organlarining o`rni va ahamiyatini yanada kuchaytirish, ijro etuvchi hokimiyatni shakllantirish, uning faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishda siyosiy partiyalarning ta`sirini kafolatlash uchun mustahkam qonunchilik asoslari yaratilgan.

“Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to`g`risida”gi konstitutsiyaviy qonuni, “Siyosiy partiyalar to`g`risida”gi va “Siyosiy partiyalar faoliyatini moliyashtirish to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasining qonunlari, 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi va mazkur Strategiyada belgilangan maqsad va vazifalarini hayotga tadbqiq etishga yo`naltirilgan har yilgi Davlat dasturlari mazkur qonunchilik asoslarining o`zagini tashkil etadi.

O`tkan davr mobaynida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini oshirish borasida qo`yidagi inqilobiy islohotlar amalga oshirilgan:

- O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida va mahalliy halq deputatlari Kengashlarida siyosiy partiyalardan saylangan deputatlardan iborat fraktsiya va deputatlik guruhlar tashkil etildi, ularning huquqiy maqomi mustahkamlab qo`yildi, aniq vazifalari va vakolatlari, shu jumladan, parlament va mahalliy Kengashlarning kun tartibini belgilashda

ovozga ega bo'lishi, davlat va mahalliy byudjetlarni shakllantirishda, xukumat a'zolari va xokimlarni tayinlashda ularni dastlab muhokama qilish va tasdiqlash huquqi, parlament va deputatlik nazoratining sub'ektlari ekanliklari belgilab qo'yildi;

- siyosiy partiyalarning davlat tomonidan moliyalashtirish tizimi joriy qilindi;

- siyosiy partiyalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vazir, Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengash deputatlariga nomzodlarni tavsiya etish mutloq huquqi qonun doirasida mustaxkamlab qo'yildi.

Natijada, siyosiy partiyalar hozirgi kunda oldingi faolsiz va chetda turgan kuzatuvchi vazifasini bajarayotgan tashkilot emas, balki ma'lum ma'noda siyosiy salohiyatga ega bo'lgan, davlat siyosatini belgilashda va amalga oshirishda sezilarli o'ringa ega bo'layotgan siyosiy kuchga aylanmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Biroq, siyosiy partiyalarning davlatimiz va jamiyatimizning hayotidagi roli va ahamiyati kutilayotgan darajadan ancha past, ularning faoliyatida xanuzgacha qator hato va kamchiliklar yo'l qo'yilmoqda.

Har bir mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, davlat boshqaruvini modernizatsiyalash, umuman olganda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilashda siyosiy partiyalarning roli va ahamiyati nihoyatda muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham, ayniqsa ohirgi to'rt yil ichida hayotga izchil va tizimli tadbiq etilayotgan tub o'zgartishlarda mamlakat faoliyat yuritayotgan beshta siyosiy partiyalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 13 iyul` kuni Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasida

ta'kidlanganidek: "...bugun zamonning o'zi barchamizdan, birinchi navbatda, siyosiy partiyalarning vakillari, deputat va senatorlardan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning nafaqat ishtirokchisi, balki tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishni, boshqalarga namuna ko'rsatishni talab etmoqda"¹⁵.

Siyosiy partiyalarning 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Haraqatlar strategiyasidan kelib chiqadigan vazifalari.

Avvalambor, Harakat strategiyasini taxlil etaylik, chunki aynan bu tarihiy xujjatda mamlakatda faoliyat yuritilayotgan barcha davlat organlari va jamoat tashkilotlari, shu jumladan, siyosiy partiyalarning bugungi kundagi asosiy maqsadi belgilab berilgan.

Jumladan, siyosiy partiyalarning 2017-2021 yillarda oldiga qo'yilgan asosiy maqsadi "Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan birinchi yo'nalishning "Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish" degan 1.1 kichik bandida belgilab berilgan. Unga muvofiq, siyosiy partiyalarning rolini oshirish uchta asosiy masalada, ya'ni:

birinchidan, davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirish;

ikkinchidan, qabul qilinayotgan qonunlarning amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish;

¹⁵ Мирзиёев Ш.М. Парламентимиз ҳақиқий демократия мактабига айланиши, ислохотларнинг ташаббускори ва асосий ижрочиси бўлиши керак.12.07.2017.

uchinchidan, siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o`rtasida sog`lom raqobat muhitini shakllantirishda namoyon bo`lishi lozimligi ko`rsatib o`tiladi.

Mana shu uchta asosiy maqsadga erishishda har yilgi Davlat dasturida aniq vazifalar belgilab berilgan.

Siyosiy partiyalarning 2018-2020 yillarda davlat dasturlarida belgilangan asosiy vazifalar:

Jumladan, 2017 — 2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasini 2017 yil - «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturida:

- Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan nazoratini kuchaytirish maqsadida siyosiy partiyalar deputatlik guruhlarining huquq va vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan «Siyosiy partiyalar to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish haqida»gi O`zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish;

-Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining ijrochi kotiblari lavozimini ta`sis etish kabi chora-tadbirlar rejalashtirilgan edi.

Mazkur choralar amalga oshirilishi oqibatida siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat hayotidagi o`rni ancha oshdi desak haqiqatga to`g`ri bo`ladi. .

Yoki Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g`oyalar va texnologiyalarni qo`llab-quvvatlash yili» deb nomlangan 2018-yilda amalga oshirishga oid Davlat dasturida: siyosiy partiyalar tomonidan mamlakatda bo`lib o`tadigan barcha saylov kampaniyasida xalqaro norma va standartlarga muvofiq qatnashishi ta`minlash, saloy

qonunchiligin unifikatsiya qilish, saylov jarayoniga nisbatan yagona shaffof va samarali yondashuvlar nazarda tutish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksini qabul qilish; shu jumladan, siyosiy partiyalar uchun ham muhim bo'lgan O'zbekiston Respublikasi saylovchilarining Yagona elektron ro'yxati axborot tizimini takomillashtirish va «Elektron hukumat» tizimi doirasida butun respublika bo'yicha joriy etish.

Mamlakat siyosiy sahnasida sog'lom raqobatni ta'minlash maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasidan O'zbekiston Ekologik harakati vakillari uchun belgilangan kvotani bekor qilishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqish rejalashtirilgan edi.

Mazkur vazifalarning barchasi hayotga joriy qilingan va ularning natijalari, so'zsiz, siyosiy partiyalarning respublikada bo'lib o'tayotgan siyosiy jarayonlarda bir muncha faollashishiga, siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat hayotidagi rolini oshishiga hizmat qildi.

Siyosiy partiyalarning nufuzini yanada oshirishga qaratilgan shunga o'xshash chora-tadbirlar 2019-yilgi Davlat dasturida ham nazarda tutilgan edi. Chunonchi, mazkur Davlat dasturida belgilab berilgan:

- Vazirlar Mahkamasi a'zolarini Oliy Majlis, viloyat, tuman va shahar davlat organlari rahbarlarini tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlash amaliyotini joriy etish;

- hokimiyat vakillik organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlashga qaratilgan «Elektron parlament» tizimi loyihalarini amalga oshirish.

- fuqarolarning saylovga oid huquqlarini ta'minlashni takomillashtirish, bu borada ayrim toifadagi shahslarni, jumladan, ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan fuqarolarga saylov huquqini berish kabi chora-tadbirlarni hayotga tadbiq etilishida siyosiy partiyalarning parlament palatalari deputatlari va senatorlari, Qonunchilik palatasidagi fraktsiyasi, hamda mahalliy Halq deputatlari Kengashlaridagi deputatlik guruhlarini orqali ancha faol ishtirok etkanligi kuzatildi.

Va, nihoyat, 2020 yilgi Davlat dasturida:

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraktsiyalarning faolligini oshirish;

xalq deputatlari Kengashlarining faoliyatini kuchaytirish va nazorat sohasidagi vakolatlarini kengaytirish;

aholining elektoral madaniyatini yuksaltirish kontseptsiyasini ishlab chiqish;

saylov tizimini yanada takomillashtirish choralarini ko`rish;

saylovchilarning yagona elektron ro`yxati va Saylov jarayonini boshqarish axborot tizimini takomillashtirish kabi chora-tadbirlar ko`zda tutilgan bo`lib, ularning hayotga joriy qilishda siyosiy partiyalar bevosita va bilvosita faol ishtirok etishdi desak hato bo`lmaydi.

Siyosiy partiyalarning endilikdagi vazifalari Harakat strategiyasini 2021 yili - “Yoshlarni qo`llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustaxkamlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilab qo`yildi.

Mazkur Davlat dasturida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan qo`yidagi chora-tadbirlar belgilab qo`yildi:

Birinchi vazifa – qonun ijodkorligi faoliyati va qonunlar ijrosini ta`minlash sohasida Oliy Majlis palatalari va mahalliy davlat hokimiyati organlari o`rtasidagi o`zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish. Mazkur vazifani bajarishda, Davlat dasturida ko`rsatib o`tilgan chora-tadbirlardan tashqari, bizning fikrimizcha, siyosiy partiyalar tomonidan amalga oshirishi mumkin bo`lgan ishlar ham talaygina.

*Birinchi*dan, siyosiy partiyalar Oliy Majlis palatalari va mahalliy davlat hokimiyati organlari (ya`ni tuman, shahar va viloyat hokimlari hamda mahalliy Halq deputatlari Kengashlari) o`rtasidagi o`zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish masalasini shu partiyadan Oliy Majlisi palatalariga va mahalliy Halq deputatlari Kengashlariga saylangan deputatlari va senatorlari, hokimiyat tizimida faoliyat yuritayotgan ularning a`zolari oldiga ustuvor vazifa sifatida belgilashlari mumkin. Shu bilan

birga, siyosiy partiyalar o'z imkoniyatlari deputat va senatorlar, hokimiyat hodimlari imkoniyatlaridan ancha katta ekanligini inobatga olib, mazkur hamkorlikning shakllari va uslublarini ishlab chiqishlari mumkin va ularni hayotga tadbqiq etish partiya topshirig`ini o'z a`zolariga berishlari mumkin.

Keyinchalik shu topshiriqning ijrosi ustidan partiya nazorati o`rnatilib, uning natijalari siyosiy partiya yig`ilishlarida ko`rib chiqilsa maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Ikkinchidan, qonun ijodkorligi faoliyati va qonunlar ijrosini ta`minlash sohasida Oliy Majlis palatalari va mahalliy davlat hokimiyati organlari o`rtasidagi o`zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish siyosiy partiyalarning ularning faoliyatida bevosita va bilvosita ishtirok etish orqali ham erishish mumkin. Bunday ishtirokchilikka, masalan, siyosiy partiya vakillari Oliy Majlis palatalari, uning organlari hamda hokimliklar va mahalliy halq deputatlari Kengashlari tashkil etilayotgan tadbirlarda jamoatchilik, shu jumladan, jamoat nazorati vakili, shuningdek ma`lum soha mutahassisi yoki eksperti sifatida amalga oshirish uchun amaldagi qonunchiligimizda etarli huquqiy asoslar mavjud.

2021 yilgi Davlut dasturida siyosiy partiyalar faoliyatiga bevosita yoki bilvosita taaluqli bo`lgan ikkinchi vazifa, bu – halq deputatlari mahalliy Kengashlari kotibiyatlari faoliyatini oshirish desak hatto bo`lmaydi.

Bizning fikrimizcha, har bir siyosiy partiya o`zining strategik maqsadlariga erishish uchun “mahalliy parlamentlar”ning aynan shu tuzilmasida o`z safidan chiqqan a`zolari faoliyat ko`rsatishiga intilishlari lozim deb hisoblayman. Chunki halq deputatlari mahalliy Kengashlari kotibiyatlari shu organning samarali va ta`sirchan faoliyat ko`rsatishda alohida o`ringa ega. Bunday tendentsiyani horijiy parlamentlarning faoliyatida ham ko`rishimiz mumkin, chunki aynan kotibiyatlar mahalliy halq deputatlari kengashlari faoliyatini yuritishda, uning ustuvor faoliyat yo`nalishlarini belgilashda keng imkoniyatlarga va vakolatlarga ega.

2021 yilgi Davlat dasturida siyosiy partiyalar faoliyatiga bevosita yoki bilvosita taaluqli bo`lgan uchinchi vazifa, bu – davlat boshqaruvi organlari, o`rta va qo`yi bug`in boshqaruv idoralarning hamda mahalliy ijro va vakillik organlari faoliyatlarini tubdan takomillashtirish masalasidir.

Mazkur vazifani ro`yobga chiqarishda siyosiy partiyalarning ishtiroki qo`yidagilardan iborat bo`lishi mumkin:

birinchidan, davlat boshqaruv organlari faoliyatini har bir hududiy partiya tashkiloti tomonidan mahsus o`rganishlarni (tuman, shahar va viloyat kesimida) tashkil etish, mazkur organlarning faoliyatida yo`l qo`yilayotgan hato va kamchiliklarni yuzaga chiqarish, ularning sabablari va imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, natijasi bo`yicha tayyorlangan tahliliy ma`lumotnomalarni, davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan tizimli va roivojlangan demokratik mamlakatlarning tajribasi bilan asoslantirilgan taklif va tavsiyalarni aks ettirgan holda, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi va vakillik organlari muhokamasiga kiritish;

ikkinchidan, mazkur masalani siyosiy partiyalarning Plenumlari kun tartibiga alohida masala sifatida kiritish. Mazkur Plenum yig`ilishlari siyosiy partiyaga a`zo bo`lgan respublikaning vazirlik, davlat qo`mitalari va boshqa respublika idoralari rahbarlari va rahbariy hodimlarining faol ishtiroki bilan o`tkazilsa, Plenum qarorlari esa Vazirlar Maxkamasining muxokamasiga taqdim etilsa maqsadga muvofiq bo`lar edi;

uchinchidan, davlat boshqaruvi hamda mahalliy ijro va vakillik organlari faoliyatlarini tubdan takomillashtirish masalasini bu yil o`tadigan Prezident saylovidan oldin, hamda 2024 yilda Oliy Majlis palatalariga va mahalliy halq deputatlari Kengashlariga bo`lib o`tadigan saylovlar oldin har bir siyosiy partiyalar tomonidan tayyorlanayotgan saylovoldi platformasiga partiyaning ustuvor vazifasi sifatida kiritish.

Buning natijasida, bir tomondan, mazkur vazifani hal etishda nafaqat davlat organlarining mas`uliyatini yanada oshirishga, balki aholining barcha qatlamlari, shu jumladan, siyosiy partiyalar elektoratining say`i

xatti-xarakatlarini safarbar etish va muvofiqlashtirishga erishish mumkin bo`ladi deb o`ylayman.

2021 yilgi Davlat dasturida siyosiy partiyalar faoliyatiga bevosita yoki bilvosita taaluqli bo`lgan galdagi to`rtinchi vazifa, bu – xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi mavqeini yanada oshirishga qaratilgan yaxlit tizimini yaratish masalasi.

Bu borada Davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlar qatorida, birinchi galda xotin-qizlar jamoatchilik kengashlarining muvofiqlashtirilgan tizimni tashkil etish ko`zda tutilgan. O`ylaymanki, aynan bu ishlarni amalga oshirishda barcha siyosiy partiyalarning tizimida tashkil etilgan xotin-qizlar qanoti vakillari eng faol ishtirokchilarga aylanadi va mazkur jamoatchilik kengashlari tizimida siyosiy partiya vakillari ko`proq bo`lishiga asosiy e`tiborini qaratishadi.

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim omili. Ma`lumki, bugungi rivojlangan va taraqqiyot yo`lini tanlagan har bir davlatda mavjud bo`lgan tom ma`nodagi demokratiyani ko`ppartiyaviy tizimsiz tasavvur etib bo`lmaydi. Oddiy qilib aytganda, demokratiya siyosiy partiyalarsiz, siyosiy partiyalar demokratiyasiz mavjud bo`lishi mumkin emas. Chunki jamiyatda ko`ppartiyaviylikning mavjudligi bu siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi deganidir. Ta`bir joiz bo`lsa, bu demokratiyaning eng muhim va asosiy shartlaridan biridir. Asosiy Qonunimizda O`zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi haqidagi konstitutsiyaviy normaning belgilab qo`yilgani ham bejiz emas. O`zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq siyosiy partiyalarga fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida qaralib, ular faoliyatini rivojlantirishga katta e`tibor berildi va hozirgi kunda mamlakatimizda haqiqiy ma`noda ko`ppartiyaviylik tizimiga asos solindi.

2.2.Davlat strategik rejalari va dasturlari – islohotlarning drayveri

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko`ra, har bir xalq o`z oldiga ulug` va istiqbol maqsadlarni qo`yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatida munosib o`rin egallaydi. Bugun O`zbekiston ham o`z tarixining ana shunday mas`uliyatli chorrahasida turibdi, desak, mubolag`a bo`lmaydi. Binobarin, Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi istiqbolimiz taqdirini hal etuvchi muhim va yangi davr bosqichini ifodalovchi milliy g`oyaga aylanmoqda.

Xo`sh, strategiya nima? U xalqning maqsadlarini qanday ta`minlaydi? Tanlagan maqsadlarning istiqbollari nimalarda namoyon bo`ladi? Strategiya — bu ta`limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo`lib, u izchillik bilan va to`liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta`minlaydi.

XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi. Strategiya deb, dunyo miqyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartaraf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, davlat strategiyasi bir biri bilan o`zaro bog`liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko`plab tushunchalarda ifodalanadi.¹⁶

Strategiyaning mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat. Siyosat, strategiya va taktika — strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlarini bilan bog`liq uchta mustaqil kategoriyadir. Ularning farqi shundan iboratki, strategiya tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qabul qilingan bo`lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan ob`ektning mayog`iga aylanadi. Taktika esa strategik vazifalarni amalga oshirish bo`yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarni va ularning echimi bo`yicha

¹⁶ Тўлкин Алимардонов. Ҳаракатлар стратегияси – Ўзбекистон миллий тараққиётининг янги босқичи (<https://xs.uz/uzkr/post/harakatlar-strategiyasi-ozbekiston-milliy-taraqqiyotining-yangi-bosqichi>)

tadbirlarni taqozo etadi. Siyosat — bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinishidir.

Ko`rib turganimizdek, strategiyaning asl mohiyatida xalqimizning orzu-umidlari yo`g`rilgan g`oyalardan tashkil topgan milliy mafkuraning ifodasi yotadi. Mafkuradan nusxa olib bo`lmaganidek, davlatning strategik maqsadlarini ham boshqa davlat va xalqlarning tarixiy tajribasidan o`zlashtirib yoxud nusxa olib bo`lmaydi. Zero, har bir xalqning o`ziga xos siyosiy-ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, madaniy tarixi, tabiiy resurslari mavjud bo`ladi. Aynan shu omillar ma`lum ijtimoiy sharoit va imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Strategiyani amalga oshirish eng mas`uliyatli jarayon. Agar u real vaziyatni to`liq qamrab olgan yaxlit va bir butun reja bo`lsa, uning muvaffaqiyati ta`minlanadi. Mabodo teskari bo`lsa, unda turg`unlik yuzaga keladi. Bunga sabab, noto`g`ri tahliliy ma`lumotlar, xulosalar, kutilmagan sharoitlar, resurslardan oqilona foydalana olmaslikdir. Strategiyani baholash va nazorat qilish strategik rejalashtirishni mantiqiy yakunlovchi omili bo`lib hisoblanadi. U hodisalarning qayta aloqalanishini ta`minlash jarayonida strukturaviy bo`g`inlardagi bog`lanish imkoniyatlarini tahlil qiladi, baholaydi, aniqlaydi, xulosalar chiqaradi. Zaruratda strategik rejalarni o`zgartiradi¹⁷.

Davlat strategik rejalari aniq va o`zgarmas tamoyillarga bo`ysundirilishi muhim. Ular islohotlarning bir maromda, izchil yo`nalishini ta`minlashga xizmat qiladi. Jumladan, rahbar o`z vazifalarini amalga oshirishida turli ilmiy sohalardagi ma`lumotlar va xulosalar bilan qurollanmog`i, bundan tashqari, improvizatsiya qilmog`i, quyilgan vazifalar echimini topishda individual va kreativ yondashuvlarni tashkil etishi lozim. Mazkur tamoyillar oldin qabul qilingan qarorni o`zgartirish ehtimoli yoki o`zgaruvchan vaziyatdan kelib chiqib, qayta ko`rib chiqish imkoniyatini berishi zarur.

¹⁷ Ўша ерда.

Strategik dastur va rejaning uyg'unligi hamda turli darajadagi qarorlarning mustahkam bog'liqligi muvaffaqiyatning kafolati. Mazkur birlik davlat organlarning strukturaviy bo'g'inlarida strategik harakatlarni birlashtirish, barcha funktsional bo'lim rejalarining kelishuvi bilan ta'minlanadi. Ayni paytda strategiyani amalga oshirish imkoniyatlarini tug'diradi. Strategik boshqaruv jarayonida dastur va rejani amalga oshirish uchun tashkiliy va huquqiy sharoitlar yaratilishi lozim.

Mazkur tamoyillar hokimiyat organlari faoliyatidagi ijro intizomining past sur'atlariga, shaxsiy mas'uliyatsizligiga barham beradi, kadrlar layoqati darajasini oshirishni talab qiladi, murakkab va chigal ish tartiblarini sodda hamda tezkor yondashuvlar bilan o'zgartirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, strategik yo'nalishlarni belgilashning mavhum va noma'lum jihatlarini oydinlashtirish orqali tartiblashtirishga erishiladi.

Istiqbol maqsadlarni qo'ygan davlatlarning aksariyati milliy strategik muvaffaqiyatlarni YaIMning o'sishida, fuqarolarining farovonlik darajasining yuksalishida, deb qaraydi. Yaqin o'tmishda davlatning birlamchi vazifalari hosildorlikni oshirish, oltin-neftni ko'paytirish, armiyani mustahkamlash bilan izohlangan. Albatta, ushbu omillarni inkor etmagan holda bugun O'zbekistonda milliy qadriyatlar bilan qurollangan davlatning strategik maqsadi fuqarolarning g'oyaviy e'tiqodi, bilim-salohiyati, jamiyatdagi mukammal qonunlar va barqaror ijtimoiy institutlarning mavjudligini ta'minlash asnosida amalga oshirish ko'zda tutilmoqda¹⁸.

Strategik maqsadlarning aynan inson kapitaliga va u orqali adolatli qonunlarning, faol ijtimoiy institutlar harakati tashkil etilishiga qaratilayotganligi bejizga emas. Shuning uchun har qanday islohotlar inson kapitalini rivojlantirish bilan amalda uning tamal toshi mustahkamlanadi.

Mamlakatimiz strategiyasi nafaqat ichki va tashqi siyosatdagi islohotlar sari tashlangan qadamda, balki, eng avvalo, davlatning xalqqa,

¹⁸ Тўлкин Алимардонов. Ҳаракатлар стратегияси – Ўзбекистон миллий тараққиётининг янги босқичи (<https://xs.uz/uzkr/post/harakatlar-strategiyasi-ozbekiston-millij-taraqqiyotining-yangi-bosqichi>)

xalqning davlatga boʻlgan munosabatini oʻzgarayotganligida namoyon boʻlmoqda. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qatʼi nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi boʻlib yashashi davlatning bosh maqsadi sifatida strategik yoʻnalishlar belgilanmoqda. Ular avvalo, rivojlantirilayotgan ijtimoiy sohalarda oʻz ifodasini topmoqda. Yoshlarga munosib taʼlim berish, zamonaviy kasb-hunarlar bilan qurollantirish, aholining salomatligini taʼminlash, nogironligi boʻlgan shaxslar, boquvchisini yoʻqotganlar, yolgʻiz keksalar, umuman, koʻmakka muhtoj qatlamlarni qoʻllab-quvvatlash davlatimiz rahbarining 2018 yil 28 dekabr kuni Oliy Majlisga yoʻllagan Murojaatnomasida oʻz tasdigʻini topdi.

Davlat va jamiyat qurilishi shunday bir murakkab tuzilmaki, uning tarkibidagi bir-biriga bogʻliq boʻlgan va bir-birini toʻldiradigan soha va jabhalarni bir vaqtning oʻzida jadal rivojlantirishni talab qiladi. Ularning har biri ikkinchisiga zamin yaratadi. Qaysidir asosiy soha avval rivojlanib, boshqa soha va tarmoqlar uchun lokomotiv vazifasini ham bajaradi. Albatta, bu jarayonda har bir sohaning oʻziga xos xususiyatlarini inobatga olish, obʼektiv tahlil qilish, oʻz vaqtida tegishli chora-tadbirlar qabul qilish, ularni rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratish, samarali ishlash mexanizmlarini yangi texnologiyalar asosida tashkil etib berish kabi vazifalarni hal qilishni talab qiladi.

Davlatning harakatlar strategiyasi etaklovchi lokomotiv kuchi — bu davlat va uning organlari. Islohotlarning garovi va kafolati hokimiyatning samarali faoliyati bilan bogʻliq hodisa. U boshqaruv mahorati bilan uzoqqa moʻljallangan maqsadlarni rejalashtiradi, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni idora qiladi, aholini safarbar etadi, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va uni odilona taqsimot qilish vazifalarini amalga oshiradi. Shunday ekan, davlat va jamiyat boshqaruvi tizimlarini takomillashtirmasdan turib mamlakat hayotini modernizatsiya qilib boʻlmaydi. Modernizatsiya oʻz umrini poyoniga etkazgan boshqaruv usullarini yangi sifat va talablar darajasiga koʻtarish bilan mamlakatni rivojlantirishga olib keladi. Bu

jarayonlar bevosita mahalliy hokimiyatlarning hududlarni rivojlantirishga oid masalalarni hal etishda mustaqil qarorlar qabul qilishning huquqiy asoslarini shakllantirishni taqozo qiladi. Shu nuqtai-nazardan Prezidentimiz parlamentning muhim qarorlar qabul qilish va qonunlar ijrosini nazorat etish faoliyatini kuchaytirish, ijro hokimiyati tizimini optimallashtirish, ma'muriy islohotlarni davom ettirish va davlat boshqaruvida zamonaviy menejment usullarini keng qo'llash, davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish maqsadida davlat xizmatiga malakali mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish, mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqish, ularning mustaqilligini yanada oshirish vazifalarini belgilaydi¹⁹.

Boshqaruvda adolatli davlat idora tizimlari shakllanmas ekan, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari — ikkinchi uzviy bog'lanuvchi muhim tamoyil ta'minlanmaydi. Ular sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday tizimning samarali faoliyati fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishning real imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Oliy sud — oliy hakam sifatida jamiyatning yaxshi-yomoni, foyda-ziyonini belgilab beruvchi ma'naviy barometrga aylanadiki, bunday ijtimoiy muhitda jinoyat qilishdan ko'ra bunyodkorlik qilish afzal bo'ladi. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida sud'yalikka nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish lozimligiga ahamiyat berishi strategik maqsadlarning izchil amaliyotini joriy etishga qaratilmoqda.

Jamiyatda adolatli boshqaruvning vujudga kelishi, shubhasiz, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Ular makroiqtisodiy barqarorlikni

¹⁹ Тўлқин Алимардонов. Ҳаракатлар стратегияси – Ўзбекистон миллий тараққиётининг янги босқичи (<https://xs.uz/uzkr/post/harakatlar-strategiyasi-ozbekiston-millij-taraqqiyotining-yangi-bosqichi>)

mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlash, tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish, ayniqsa, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning yangi innovatsion texnologiyalarining tatbiq etilishi imkoniyatlarini yaratadi. Ya'ni rivojlanishning ichki qonuniyatlariga ko'ra, yangi sifat bosqichga ko'tarilishning murakkab, ammo takomillashgan shakllari paydo bo'ladi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni amalga oshiradi. Natijada mavjud salohiyatdan samarali foydalanish orqali joylarda mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'sish sur'atlari vujudga keladi.

Jamiyatda ijtimoiy ongning o'zgarishi bilan ijtimoiy munosabatlar ham rivojlanib boradi. Jamiyat va uning holati aslida inson ongining in'ikosi. Fuqarolar qanday ezgu amallar ma'rifati bilan qurollangan bo'lsa, ana shu ruhiy qudrat istaklarining hosilasini oladi. Bu jarayon ulkan to'lqin sifatida millatning mushtarak maqsadlarida namoyon bo'ladi. U, o'z navbatida, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida yangi tarmoqlarning, ishchi o'rinlarning paydo bo'lishiga, aholining real daromadi va shunga muvofiq turmush darajasining o'sib borishiga xizmat qiladi.

2021 yilgi Davlat dasturi loyihasining muhokamasi

Ma'lumki, 2021 yil 3 fevral` kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, aholi salomatligini mustahkamlash, tadbirkorlikni yanada rivojlantirish hamda pandemiyaning iqtisodiyotga ta'sirini yumshatish kabi muhim ustuvor yo'nalishlarni o'zida aks ettirgan 2021 yil – "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risidagi Farmon imzolandi.

Davlat dasturi jami 274 banddan iborat bo`lib, birinchi – davlat boshqaruvi yo`nalishi bo`yicha – 20 ta, ikkinchi – sud-huquq yo`nalishi bo`yicha – 18 ta, uchinchi – iqtisodiyot yo`nalishi bo`yicha 113 ta, to`rtinchi – ijtimoiy soha yo`nalishi bo`yicha 93 ta, beshinchi – tashqi siyosat va xavfsizlik yo`nalishi bo`yicha 30 ta bandni tashkil etadi.

Mazkur davlat dasturi loyihasi joriy yilning 18-28 yanvar` kunlari 2021.strategy.uz, jamoatchilik.uz va regulation.gov.uz veb-portallari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali aholi va keng jamoatchilik muhokamasidan o`tkazildi. Muhokamalar doirasida mahalliy ommaviy axborot vositalari, veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlarda 700 ga yaqin material e`lon qilindi, teleradiokanallarda qariyb 400 ta chiqish va eshittirish efirga uzatildi.

Shu bilan birga, loyiha xalq deputatlari mahalliy Kengashlari tomonidan ham atroflicha muhokama qilinib, unda belgilanayotgan vazifalarning hududlarda samarali ijro etilishi bo`yicha xalq vakillari oldida turgan birinchi navbatdagi chora-tadbirlar belgilab olindi.

Umumiy hisobda Davlat dasturi loyihasining hayotiyligini ta`minlashga qaratilgan 4 mingga yaqin taklif kelib tushdi. Xususan, davlat boshqaruvi yo`nalishi bo`yicha – 1 239 ta, sud-huquq yo`nalishida – 479 ta, iqtisodiyot sohasida – 901 ta, ijtimoiy sohada – 1 018 ta, tashqi siyosat va xavfsizlik yo`nalishida – 146 ta takliflar bildirildi.

Keng jamoatchilik va ekspertlar tomonidan berilgan takliflarni har tomonlama ko`rib chiqish yakuniga ko`ra, Davlat dasturi loyihasiga jami 50 ga yaqin kontseptual hamda 100 dan ortiq aniqlashtiruvchi tahririy o`zgartirish va qo`shimchalar kiritildi. Shuningdek, farmon bilan Davlat dasturida rejalashtirilayotgan tadbirlarni moliyalashtirishga umumiy qiymati 29 492,7 milliard so`m, 2 600,4 million AQSh dollari va 57,5 million evro miqdoridagi mablag`lar ko`zda tutilmoqda. 2021 yilgi Davlat dasturining mazmuni va mohiyati. Davlat dasturining birinchi – Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo`nalishlari bo`yicha ko`zda tutilgan eng muhim chora-tadbirlar qatorida Prezidentning

hujjatlari va topshiriqlarini mas`ullarga etkazish, tushuntirish, amaliyotda qo`llashga ko`maklashish va nazorat qilish bo`yicha Adliya vazirligi vakolatlarini kengaytirish, Davlat rahbarining hujjatlari va topshiriqlarini o`z muddatida bajarmaslik yoki sifatsiz ijro etish holatlari bo`yicha mansabdor shaxslarning mas`uliyatini oshirish yuzasidan qonunchilikni takomillashtirish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, bundan buyon O`zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va natijalarini aholiga etkazib borishga qaratilgan “Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda” mavzusida ko`rsatuv va chiqishlar tashkil etib boriladi.

Prezidentning hujjatlari va topshiriqlari ijrosini tashkil etishda jamoatchilik ishtiroki va nazoratini keng yo`lga qo`yish maqsadida “jamoatchilik eshituvlari” va “jamoatchilik monitoringi” tizimlari ham joriy etiladi.

Ikkinchi – Qonun ustuvorligini ta`minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo`nalishlari bo`yicha esa Davlat dasturida O`zbekiston Respublikasining fuqaroligini berish tartibini takomillashtirish borasidagi islohotlarni izchil davom ettirish, qiynoq holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirish, yuridik shaxslarning moliyaviy javobgarligi institutini qayta ko`rib chiqish, transport vositalarini majburiy texnik ko`rikdan o`tkazish tartibini soddalashtirish, jazoni ijro etish va probatsiya xizmatini yanada takomillashtirish kabi muhim chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilanmoqda.

Davlat dasturining uchinchi ustuvor yo`nalishi – iqtisodiyotni rivojlantirish bo`yicha belgilanayotgan eng muhim choralar sifatida, birinchidan, mamlakatimizdagi ishsiz fuqarolarga, o`zini o`zi band qilmoqchi bo`lgan fuqarolarga tegishli imkoniyatlar yaratish, xususan, er maydonlarini ajratish, ish faoliyatlarini boshlashlari uchun subsidiyalar berish ko`zda tutilmoqda. Ikkinchidan, energetika bozorlarini monopoliyadan chiqarish, tabiiy gaz va elektr energiyasini bozor tamoyillariga asosan sotishni joriy qilish belgilanmoqda. Uchinchidan,

iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini kamaytirish, yirik korxonalar va banklarni transformatsiya qilish, ularni strategik investorga sotish kabi keng jamoatchilik e'tiroziga sabab bo'layotgan muammolar echimiga qaratilgan vazifalar ham belgilab berilgan.

Shuningdek, Davlat dasturida 2021 yilga berilgan nomdan kelib chiqib, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, yosh avlodning bilim olishi, kasb-hunar egallashi, bandligi ta'minlanishi, tadbirkorligini rag'batlantirish, ilg'or g'oya va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Bu jihatlar, ayniqsa, Davlat dasturining to'rtinchi – ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida aniq namoyon bo'lmoqda.

Xususan, joriy yildagi Davlat dasturida 2021-2022 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yosh uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti granti joriy etiladi. Oliy ta'lim muassasasida ikki va undan ortiq farzandi shartnoma asosida o'qiyotgan oilalarga ta'lim krediti berish va talaba tomonidan ushbu kreditni o'qish davri tugagandan so'ng qaytarish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Yana bir e'tiborga molik jihati shundaki, Davlat dasturida oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari sonini 25 foizga hamda ehtiyojmand oilalar farzandi bo'lgan xotin-qizlar uchun davlat grantlari sonini 2 baravarga oshirish ko'zda tutilmoqda, shuningdek, yoshlarimizning teng huquqli ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida xususiy oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashga ham davlat granti berish tizimi joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, bu yilgi Davlat dasturida ilmiy unvon va ilmiy darajalarni berish vakolati 2021 yil 1 sentyabrdan boshlab respublikaning nufuzli oliy ta'lim muassasalarining ilmiy kengashlariga bosqichma-bosqich o'tkazilishi, 2021 yil 1 apreldan boshlab esa, "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali nufuzli xorijiy oliygohlarning magistratura va

doktoranturasida o`qishga yuboriladigan yoshlar sonini 5 barobarga oshirish, mazkur jamg`arma hisobidan xorijda bakalavriat ta`lim dasturlari bo`yicha o`qitish tizimini joriy etib, 2021 yilda 100 nafar yoshlarning xorijga ta`lim olish uchun yuborilishi kabi chora-tadbirlar ham belgilab berilgan.

Barchamizga ma`lum, o`tgan 2020 yil butun dunyoda bo`lgani kabi, O`zbekiston uchun ham og`ir mashaqqatlarga to`la sinov yili bo`ldi. Koronavirus pandemiyasi sog`liqni saqlash tizimida yanada keng ko`lamli o`zgarish va islohotlarni amalga oshirish zarurligini yana bir bor ko`rsatdi.

Shulardan kelib chiqib, joriy yildagi Davlat dasturida xalqimiz salomatligini saqlash va mustahkamlash hamda aholimizning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ta`lim olishi va kasb egallashiga ko`maklashish, og`ir kasallikka chalingan bolalarni davolash maqsadida Bolalarni qo`llab-quvvatlash fondi tashkil etiladi va uning maqsadlarini amalga oshirishga Davlat byudjetidan 100 milliard so`m mablag` ajratiladi.

Shuningdek, nogironligi bo`lgan shaxslarni qo`llab-quvvatlashga qaratilgan qator amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida bu yil mamlakatda tibbiy-ijtimoiy xizmatning mutlaqo yangi modelini shakllantirish choralarini ko`rish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan.

Davlat dasturining beshinchi – Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag`rikenglikni ta`minlash, shuningdek, vazmin, o`zaro foydali va konstruktiv tashqi siyosatni amalga oshirish sohasidagi ustuvor yo`nalishlar bo`yicha esa O`zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyat kontseptsiyasini takomillashtirish bo`yicha ishlab chiqiladigan qonun loyihasida mamlakatimizning ochiq va pragmatik tashqi siyosatini izchil amalga oshirish hamda belgilangan strategik rejalarining jadal ijrosini ta`minlash maqsadlari ko`zda tutilmoqda.

Shu bilan birga, beshinchi yo`nalishda Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT) bilan hamkorlikni kengaytirish, Orol dengizi halokati oqibatida

yuzaga kelgan ekologik fojialar ta'sirini yumshatishga qaratilgan amaliy harakatlarni qat'iy davom ettirish, Afg'onistonda tinchlik o'rnatilishi va mazkur mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlash yo'lidagi global sa'y-harakatlarni faol qo'llab-quvvatlash, jumladan, Markaziy Osiyoni Hind okeani bilan bog'laydigan Trans-afg'on transport yo'lagini barpo etish borasida aniq manzilli tadbirlarni amalga oshirish kabi aniq vazifalar ko'zda tutilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida iqtisodiy diplomatiyani faol ilgari surish, ayniqsa, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan yaqin qo'shnichilik aloqalarini mustahkamlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish beshinchi yo'nalishning muhim ustuvor vazifalaridan sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, 2021 yil Davlat dasturida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan barcha sohalardagi chora-tadbirlar, eng avvalo, O'zbekiston taraqqiyoti, xalq farovonligi, yurt obodligiga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyatga molikdir.

2.3. Siyosiy partiyalarning vakolatli vakillarining huquqiy maqomi.

Demokratik huquqiy davlatni taraqqiy ettirish va fuqarolik jamiyatni tobora rivojlantirishda saylov jarayonlarining ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun ham mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab taraqqiyotimizning hozirgi davrigacha milliy saylov qonun hujjatlari va xalqaro saylov standartlariga asoslangan demokratik siyosiy jarayonlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, 2021 yilda davlat va jamiyatimiz hayotida muhim siyosiy jarayon - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "o'tgan saylovlarda xalqaro kuzatuvchilar tomonidan berilgan maqbul tavsiyalarni milliy qonunchilik va amaliyotga tatbiq etish ishlarini davom ettiramiz. Bu muhim siyosiy kampaniya yangi O'zbekiston

sharoitida saylovchilarimiz, barcha fuqarolarimizning siyosiy va huquqiy madaniyati, dunyoqarashi, grajdanlik pozitsiyasi yuksalib borayotganini yana bir bor namoyon etadi, deb ishonaman.”-deb, ta’kidlagan.²⁰

2019 yili parlament va mahalliy kengashlarga bo’lib o’tgan saylovlar yakunlarining tahlili, mahalliy va xalqaro kuzatuvchilar hamda ekspertlarning bildirgan taklif-mulohazalari asosida saylov qonun hujjatlariga muhim o’zgartish va qo’shimchalar kiritildi.

Xususan, “Saylov qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni (2021 yil 8 fevral, O’RQ-670-son) asosida O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasiga o’zgartishlar kiritilib, mamlakatimizda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda — oktyabr oyi uchinchi o’n kunligining birinchi yakshanbasida o’tkazilishi belgilandi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, saylovlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, yaqin va kelajakda belgilab olinadigan strategik taraqqiyot yo’nalishlari va muhim dasturiy vazifalarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bo’lajak O’zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining o’ziga xos jihatlari shundaki, birinchidan, 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasida amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlar jarayonida o’tkaziladi, ikkinchidan, milliy tajriba va halqaro saylov standartlari asosida qabul qilingan Saylov kodeksi va saylov qonun hujjatlariga kiritilgan muhim demokratik yangiliklar doirasida o’tkaziladi.

²⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 29.12.2021. www.President.uz.

Ushbu saylovning yangicha o`tishi, birinchidan, fuqarolarning siyosiy-huquqiy ongi va madaniyati yuksalib borayotganligi, ikkinchidan, ommaviy axborot vositalarining tom ma`nodagi “to`rtinchi hokimiyat” sifatidagi o`z o`rnini egallayotgani, uchinchidan, mamlakatimizda barcha sohalarda ochiq va oshqoraligi ta`minlashga katta etibor qaratilayotgani diqqatga sazovordir.

Zero, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining milliy saylov tajribasi va zamonaviy demokratik talablar asosida yuksak saviyada o`tkazilishida saylovga tayyorgarlik ko`rish va uni o`tkazishning barcha bosqichlari ochiq, oshkora va shaffof o`tkazishi bilan chambarchas bog`liqdir.

O`zbekiston Respublikasi Saylov kodeksida saylovga tayyorgarlik ko`rish hamda uni o`tkazishdagi ochiqlik va oshkoralikni ta`minlashga qaratilgan muhim qoidalar belgilangan. Xususan, Mazkur kodeksning 8-moddasida quyidagicha belgilangan: “Saylov komissiyalari fuqarolarni o`z ishi to`g`risida, saylov okruglari, uchastkalari tuzilganligi haqida, saylov komissiyalarining tarkibi, ularning joylashgan eri va ish vaqti to`g`risida xabardor etadi, saylovchilarning ro`yxatlari, saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalarning ro`yxati bilan tanishtiradi, O`zbekiston Respublikasi Prezidentligiga, Qonunchilik palatasi deputatligiga, mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlar to`g`risidagi, shuningdek ovoz berish va saylov yakunlari haqidagi ma`lumotlarni ma`lum qiladi. Ommaviy axborot vositalari saylovga tayyorgarlikning borishini va saylov qanday o`tayotganligini yoritib boradi.”

Bundan tashqari ushbu moddada saylov jarayonlarining shaffofligini ta`minlashda kuzatuvchilar va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari vakillarining bevosita ishtiroki bilan bog`liq quyidagi muhim norma mustahkamlangan: “Saylovga tayyorgarlik ko`rish hamda uni o`tkazishga doir barcha tadbirlarda, shuningdek saylov kuni ovoz berish xonalarida va ovozlarni sanab chiqishda O`zbekiston Respublikasi Prezidentligiga, Qonunchilik palatasi deputatligiga, mahalliy Kengashlar deputatligiga

nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalardan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan kuzatuvchilar, ommaviy axborot vositalari vakillari, boshqa davlatlardan, xalqaro tashkilotlardan kuzatuvchilar ishtirok etish huquqiga ega.”²¹

Alohida ta'kidlash kerakki, ushbu muhim demokratik qoida-talablar “Saylov-2019” siyosiy kampaniyasining yuksak darajada o'tkazilishida muhim omil bo'lib xizmat qildi. Mazkur bo'lib o'tgan saylovlarda 54 551 nafar siyosiy partiyalarning vakolatli vakili hamda 79 345 nafar nomzodlarning ishonchli vakili saylov komissiyalari tomonidan ro'yxatga olinib, faoliyat olib bordilar.

MSK tomonidan eXHT DIIHBdan 273 nafar, eXHT Parlament Assambleyasidan 66 nafar, ShHTdan 20 nafar, MDH Ijroiya qo'mitasi va MDH Parlamentlararo Assambleyasidan 182 nafar, Turkiy tilli davlatlar Hamkorlik kengashidan 9 nafar, Turkiy tilli davlatlar Parlament Assambleyasidan 5 nafar, shuningdek, evropa taraqqiyot va tiklanish banki, Xalqaro huquq bo'yicha Gaaga konferentsiyasi, xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalaridan, 50 ga yaqin xorijiy davlatdan jami 825 nafar xalqaro(xorijiy) kuzatuvchilar arreditatsiyadan o'tkazildi va saylovlarni kuzatib bordilar.

Saylov kampaniyasini tegishli saylov komissiyalarida akkreditatsiyadan o'tgan milliy va xorijiy OAVning 1 155 nafar vakili bevosita yoritib bordi.

Ilk bor saylovga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish jarayonini 59 894 nafar saylovlarda ishtirok etgan beshta siyosiy partiyannng kuzatuvchisi hamda 10 260 nafar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining kuzatuvchisi bevosita kuzatib bordi.²²

Saylov jarayonlarining barcha bosqichlarida kuzatuvchilar, siyosiy partiyalarning vakolatli vakillari, nomzodlar ishonchli vakillarining bevosita ishtirok etishlari saylovlarga tayyorgarlik ko'rish va uni

²¹ Ўзбекистон Республикасининг Сайлов кодекси. www.lex.uz.

²² “Сайлов-2019: ютуқлар, муаммолар, таклифлар”. Марказий сайлов комиссияси. 2020 йил.-114 б.

demokratik talablar asosida ochiq va oshkora o'tkazishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ygan hozirgi vaqtda barcha soha va tarmoqlarda chuqur demokratik o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Harakatlar strategiyasi asosida jamiyatimizda ko'ppartiyaviylik, siyosiy plyuralizm, fikrlar rang-barangligi, ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini kuchaytirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda beshta siyosiy partiya – “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi, Xalq demokratik partiyasi, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi va Ekologik partiya faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning o'z g'oya va dasturlarini amalga oshirishi, saylovlarda tenglik, ochiqlik va xolislik tamoyillari asosida faol ishtirok etib, Prezident saylovida hamda parlament, mahalliy vakillik organlarida o'z fraktsiyalari va partiyaviy guruhlarini shakllantirishi hamda mamlakatimiz siyosiy-ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha qonuniy asoslar yaratilgan. Yangi qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi bu borada yanada keng imkoniyatlar yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Siyosiy partiyalar haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev shunday ta'kidlagan: “Har qanday siyosiy partiya zamon bilan hamnafas bo'lib, uning o'tkir talablariga javob bergan taqdirdagina siyosiy kuch sifatida yashay oladi”.²³

2021 yilda bo'ladigan saylovlar mamlakatimiz hayotidagi muhim voqea bo'lib, butun xalqimiz qatori siyosiy partiyalar uchun ham katta siyosiy maktab bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. Saylovlarning ko'ppartiyaviylik va muqobillik, oshkoralik va transparentlik tamoyillari asosida, dunyoda umume'tirof etilgan demokratik standartlarga mos holda o'tishi ko'p jihatdan siyosiy partiyalarning ushbu jarayonga puxta

²³ Ўзбекистон Республикаси Президенти нутқлари. www.President.uz

tayyorgarlik ko`rishi hamda chuqur o`ylangan yangi g`oya va maqsadlar, dasturlar bilan ularda faol ishtirok etishiga bog`liq. Milliy qonunchiligimizda bo`lajak saylovda nomzodlar faqat siyosiy partiyalar tomonidan ilgari surilishi qat`iy belgilab qo`yilgani har bir partiyaga katta huquq va imkoniyat berishi bilan birga yuksak mas`uliyat ham yuklaydi.

Albatta, saylovlar oldidan har bir siyosiy partiya o`zining saylovoldi dasturi, siyosiy platformasini ishlab chiqadi, yangi-yangi g`oyalarni o`rtaga tashlaydi, el-yurt orasida obro`-e`tibor qozongan insonlar nomzodini ilgari suradi. Bir so`z bilan aytganda, siyosiy amiyatdagi kurash qizg`in bo`ladi.

Shuni alohida ta`kidlash lozimki, saylov jarayonlarida siyosiy partiyalar vakolatli vakillarining ishtiroki muhim ahamiyatga ega bo`lib, siyosiy partiya va ular tomonidan ko`rsatilgan nomzodlar faolyatining samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.

Siyosiy partiyalarning vakolatli vakillarining huquqiy maqomi O`zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi, O`zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to`g`risida” gi qonuni va O`zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2019 yil 11 sentyabrdagi 935-son qarori bilan tasdiqlangan “Siyosiy partiyaning vakolatli vakili to`g`risida”gi Nizomida belgilangan.

O`zbekiston Respublikasining Saylov kodeksining 34-moddasiga asosan “O`zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar, mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlar ko`rsatgan siyosiy partiya saylov komissiyasining majlislarida, hujjatlarni topshirishda, imzo varaqalari to`g`ri to`ldirilganligini tekshirishda, saylov uchastkasida ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etish uchun vakolatli vakil tayinlashga haqli.

Siyosiy partiyalarning vakolatli vakillari shaxsini tasdiqlovchi hujjatni, siyosiy partiya tomonidan berilgan hujjatni va tegishli saylov komissiyasining mandatini o`z yonida olib yurishi shart.”²⁴

²⁴ Ўзбекистон Республикасининг Сайлов кодекси. www.lex.uz.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2019 yil 11 sentyabrdagi 935-son qarori bilan tasdiqlangan "Siyosiy partiyaning vakolatli vakili to'g'risida"gi Nizomida vakolatli vakilning Saylov kodeksida belgilangan yo'nalishlaridagi faoliyati konkretlashtirilgan.

Xususan, mazkur Nizomda vakolatli vakil tayinlash va uni ro'yxatga olish bilan bog'liq qoida-talablar quyidagicha belgilangan:

- Markaziy saylov komissiyasining majlislarida, hujjatlarni topshirishda, imzo varaqalari to'g'ri to'ldirilganligini tekshirishda ishtirok etish uchun siyosiy partiya yuqori organining rahbari saylov kampaniyasi boshlanganligi rasman e'lon qilingan kundan boshlab besh kunlik muddatda o'z vakolatli vakilini tayinlaydi hamda uni ro'yxatdan o'tkazish uchun Markaziy saylov komissiyasiga tegishli hujjatlarni (murojaatnoma, nomzodning pasport nusxasi, 2 dona 3 x 4 hajmdagi fotosurati) taqdim etadi;

- Markaziy saylov komissiyasi siyosiy partiya tomonidan tavsiya etilgan vakolatli vakil nomzodiga tegishli xujjatlarni ko'rib chiqib, uch kunlik muddatda uni ro'yxatga oladi va mazkur Nizomning 1-ilovasida belgilangan shaklda unga guvohnoma (mandat)ni beradi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyaning hududiy organlari saylov uchastkasida ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etish uchun saylov uchastkalari tuzilgan kundan e'tiboran o'z vakolatli vakillarini tayinlaydi.

- Siyosiy partiyaning hududiy organi rahbari saylovga kamida o'n besh kun qolganida ariza bilan tegishli saylov komissiyasiga siyosiy partiyaning vakolatli vakillari ro'yxatini (ismi-familiyasi, lavozimi, yashash manzili va telefon raqami ko'rsatilgan holda) taqdim etadi. Bunda ariza:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida Prezident saylovini o'tkazuvchi okrug saylov komissiyasiga taqdim etiladi;

- Arizaga vakolatli vakillikka nomzodning pasport nusxasi, 2 dona

3 x 4 sm hajmdagi fotosurati ilova qilinadi.

- Tegishli saylov komissiyasi siyosiy partiyaning vakolatli vakillari ro'yxati kelib tushgan vaqtdan boshlab, besh kun ichida vakolatli vakillarni ro'yxatga oladi va ularga mazkur Nizomning 2-ilovasida belgilangan shaklda guvohnoma (mandat)lar beradi.

Bundan tashqari Nizomda vakolatli vakilga guvohnoma (mandat) berish rad etilishi mumkin bo'lgan holatlar belgilangan:

nomzod 18 yoshga to'lmagan bo'lsa yoki O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa;

saylovga o'n besh kundan kam muddat qolganda murojaat etilsa;

tegishli saylov okrugi bo'yicha siyosiy partiyadan nomzod ro'yxatga olinmagan bo'lsa (saylov uchastkasida ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etadigan vakolatli vakillarga nisbatan qo'llaniladi);

mazkur Nizomning 3 va 6-bandlarida ko'rsatilgan hujjatlar to'liq taqdim etilmasa.

Saylov jarayonlarida vakolatli vakilning huquq va majburiyatlarinng to'la amalga oshirilishi muhim ahamiyatga egadir.

Siyosiy partiyaning vakolatli vakili quyidagi huquqlarga ega:

saylov komissiyasining majlislarida, saylov komissiyalariga hujjatlarni, shu jumladan to'plangan imzo varaqlarini topshirishda, imzo varaqalari to'g'ri to'ldirilganligini tekshirishda, saylov uchastkasida ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etishga;

uchastka saylov komissiyasining bayonnomasi bilan tanishish, shu jumladan uchastka saylov komissiyasi bayonnomasining tasdiqlangan ko'chirma nusxasini olishga haqli.

Siyosiy partiyaning vakolatli vakili takroriy ovoz berish paytida ham saylov uchastkasida ovozlarni sanab chiqishda hozir bo'lishi mumkin.²⁵

Shuni alohida ta'kidlash joizki, siyosiy partiyaning vakolatli vvakili o'z

²⁵ Марказий сайлов комиссиясининг 2019 йил 11 сентябрдаги 935-сон қарори билан тасдиқланган “Сиёсий партиянинг ваколатли вакили тўғрисида”ги Низоми. www.elections.uz

faoliyatini amalga oshirish jarayonida baʼzi harakatlarni amalga oshirish man etilgan. Xususan, siyosiy partiyaning vakolatli vakili uchastka saylov komissiyasining faoliyatiga, shu jumladan saylov qutillarini muhrlashga, ochishga, ovozlarni sanab chiqishga aralashishi mumkin emas, shuningdek, siyosiy partiyalarning vakolatli vakillari shaxsini tasdiqlovchi hujjatni, siyosiy partiya tomonidan berilgan hujjatni va tegishli saylov komissiyasining guvohnomasi (mandati)ni oʻz yonida olib yurishi shart.

Saylovga oid hujjatlarda siyosiy partiyaning vakolatli vakili uchastka saylov komissiyasining xatti-harakati va qarori ustidan qonunda belgilangan tartibda shu saylov komissiyasiga yoki yuqori saylov komissiyasiga yoxud sudga shikoyat qilishi mumkin. Ushbu qoida siyosiy partiya vakolatli vakilining saylov jarayonlaridagi faoliyatini kafolatlashga xizmat qiladi ham nomzodning saaylovlarda ishtirok etish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Nomzodlar ishonchli vakilining huquqiy holati Oʻzbekiston Respublikasining Saylov kodeksi va Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2019 yil 11 sentyabrdagi 936-son qaroriga “Nomzodning ishonchli vakillari toʻgʻrisida”gi Nizomda belgilangan.

Oʻzbekiston Respublikasining Saylov kodeksining 43-moddasida quyidagicha mustahkamlangan: “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod oʻn besh nafarga qadar, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod oʻn nafarga qadar, viloyat Kengashi deputatligiga nomzod besh nafarga qadar, tuman va shahar Kengashi deputatligiga nomzod uch nafarga qadar ishonchli vakilga ega boʻlishga haqli, ishonchli vakillar nomzodga saylov kampaniyasini oʻtkazishda yordam beradi, saylash uchun tashviqot olib boradi, davlat organlari va jamoat birlashmalari, saylov komissiyalari bilan boʻladigan munosabatlarda nomzodning manfaatlarini ifodalaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodning ishonchli vakillari uning taqdimnomasiga binoan Markaziy saylov komissiyasi tomonidan roʻyxatga olinadi, Markaziy saylov komissiyasi ularga tegishli

guvohnomalar beradi.”²⁶

“Nomzodning ishonchli vakillari to`g`risida”gi Nizomda ishonchli vakilning faoliyati bilan bog`liq talablar belgilangan. Xususan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod 15 nafargacha, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod 10 nafargacha, Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar kengashi deputatligiga nomzod 5 nafargacha, Xalq deputatlari tuman va shahar kengashi deputatligiga nomzod 3 nafargacha ishonchli vakilga ega bo`lishi mumkin. Ishonchli vakil saylov komissiyasining a`zosi bo`lishi mumkin emas. Ishonchli vakillarning O`zbekiston Respublikasi hududi doirasidagi saylov bilan bog`liq safar xarajatlari saylovni o`tkazish uchun ajratilgan mablag`lar hisobidan to`lanadi.

Bundan tashqari, ishonchli vakilga uning arizasiga binoan O`zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 150-moddasi talablariga muvofiq saylovoldi tashviqoti o`tkazish davrida ish haqi saqlab qolinmagan holda ta`til berilishi mumkin.²⁷

O`zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodning ishonchli vakillari uning taqdimnomasiga binoan Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro`yxatga olinadi va mazkur Nizomning 1-ilovasida belgilangan shaklda ularga guvohnoma beriladi.

Iшонchли vakilning huquqlari birinchidan, nomzodga saylov kampaniyasini o`tkazishda yordam berad, ikkinchidan, nomzod saylanishi uchun tashviqot olib boradi, uchinchidan, davlat organlari va jamoat birlashmalari, saylov komissiyalari bilan bo`ladigan munosabatlarda nomzodning manfaatlarini ifodalaydi, to`rtinchidan, ishonchli vakil boshqa nomzod yoki uning ishonchli vakili bilan birgalikda saylovchilar bilan uchrashuvlar o`tkazishga yoxud boshqa nomzod tomonidan tashkil etilgan saylovchilar bilan uchrashuvlarda ishtirok etishga haqli.

²⁶ Ўзбекистон Республикасининг Сайлов кодекси. www.lex.uz.

²⁷ Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг 2019 йил 11 сентябрдаги 936-сон қарорига “Номзоднинг ишончли вакиллари тўғрисида”ги Низом. www.elections.uz

Bundan tashqari, ishonchli vakilga saylovoldi tashviqoti davrida:

tashviqotni saylovchilarga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovarlar berish, xizmatlar ko'rsatish (axborot xizmatlaridan tashqari), shuningdek pul mablag'lari to'lash bilan qo'shib olib borish;

noto'g'ri axborotni, shuningdek nomzodlarning sha'ni va qadr-qimmatiga putur etkazadigan ma'lumotlarni tarqatish;

saylov kuni va ovoz berish boshlanishidan bir kun oldin jamoatchilik fikri so'rovlari natijalarini, saylov natijalari prognozlarini, o'tkazilayotgan saylov bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni e'lon qilish (hammaga ma'lum qilish), shu jumladan axborot tarmoqlariga, shuningdek Internet jahon axborot tarmog'iga joylashtirish taqiqlanadi.

Ishonchli vakil tomonidan saylovga bir kun qolganida va saylov kunida tashviqot olib borish taqiqlanadi.

Saylov qonunchiligiga asosan, ishonchli vakillar saylov komissiyalarining qarorlari ustidan ushbu qarorlar qabul qilinganidan keyin o'n kun ichida yuqori turuvchi saylov komissiyasiga yoki sudga shikoyat qilishi mumkin. Konstitutsion normaga asosan jamiyatimizda tub ma'nodagi ko'ppartiyaviylikni shakllantirish uchun 1996 yil 26 dekabrda "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonunning 1-moddasiga asosan, "siyosiy partiya – qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari mushtarakligi asosida tuzilgan, jamiyat muayyan qismining davlat hokimiyatini shakllantirishdan iborat siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ko'ngilli birlashmasidir".

Siyosiy partiyalar to'g'risidagi ushbu qonunda, siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatish printsiplari, ular faoliyatining kafolatlari, ularni tuzish tartibi, nizomi, ro'yxatga olish, faoliyatini to'xtatish tartibi, ularning huquqlari, vakillik organlaridagi partiya fraktsiyalari, guruhlarining maqsadi, vazifalari to'liq ko'rsatib berilgan. Siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga

oshirish maqsadida, xohish-irodani erkin bildirish, partiyaga ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, aʼzolarining teng huquqliligi, oʻzini oʻzi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik asosida tuziladi va faoliyat koʻrsatadi.

Siyosiy partiyalarning davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatiga aralashuviga yoʻl qoʻyilmaydi. Siyosiy partiya tashkilotlarining tadbirlari asosan aʼzolarining ishdan tashqari vaqtida va ana shu partiyalar mablagʻi hisobidan amalga oshiriladi.

Siyosiy partiyani tuzish uchun kamida sakkizta hududiy subʼektda (viloyatda), shu jumladan, Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiyaga birlashish istagida boʻlgan kamida yigirma ming fuqaroning imzosi boʻlishi talab etiladi. Siyosiy partiyalar Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan roʻyxatga olinadi.

Siyosiy partiyalarning moliyaviy jihat bilan bogʻliq muammolari nafaqat saylovlar paytida, balki, butun faoliyatlari davomida asosiy masala boʻlib kelgan. Agar dastlab siyosiy partiyalarning moliyalashtirilishi faqat ularning xususiy faoliyatiga oid boʻlsa, yillar oʻtishi bilan esa ularning saylov korpusi va ommaviy hokimiyat orasidagi zarur va muqarrar vositachilarga aylanish, siyosiy faoliyatlarga juda katta miqdordagi sarf-xarajatlarning oʻsishi, ayniqsa, saylov xarajatlari ushbu faoliyatning moliyalashtirilishining huquqiy tartibga solinishiga olib keldi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sayloviga tayyorgarlik koʻrish va uni oʻtkazish bilan bogʻliq xarajatlar davlat mablagʻlari hisobidan amalga oshiriladi. Qonunchilik palatasi deputatligiga va Senat aʼzolariga nomzodlarni boshqa mablagʻlar hisobidan moliyaviy taʼminlash va moddiy jihatdan oʻzga tarzda qoʻllab-quvvatlash taqiqlanadi. Siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar saylov oʻtkazish uchun oʻz

mablag`larini ixtiyoriy ravishda berishlari mumkin. Bu mablag`larni Markaziy saylov komissiyasi saylov kampaniyasi vaqtida foydalanish uchun qabul qilib oladi.

Ushbu huquqiy tartibga solish hozirgi vaqtga kelib bir qator yangi qonunlarni yaratilishiga olib keldi. Jumladan, "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishidir. Ushbu qonun qabul qilinganiga qadar siyosiy partiyalarning moliyaviy ta`minotiga oid masalalar "Siyosiy partiyalar to`g`risida"gi Qonunning 15-16-moddalarida belgilangan normalar orqali tartibga solinar edi²⁸.

Siyosiy partiyalar faqat ustavda nazarda tutilgan vazifalarni bajarish maqsadida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi. Siyosiy partiyaning tadbirkorlik faoliyati natijalari uning moliyaviy hisobotida aks ettirilishi kerak. Siyosiy partiyalarning tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlari partiya a`zolari o`rtasida taqsimlanishi mumkin emas va ulardan faqat ustavda nazarda tutilgan vazifalarni bajarish uchun foydalaniladi.

Siyosiy partiyalar har yili barchaning e`tibori uchun o`z byudjetlarini e`lon qilib boradi va o`z faoliyatini moliyalashtirish manbalari to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga yoki u vakolat bergan organga belgilangan tartibda hisobot taqdim etadi. Siyosiy partiyalarning mulki qonun bilan muhofaza qilinadi. Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to`g`risidagi ma`lumotlarning mazkur partiyalar a`zolari va jamoatchilik uchun ochiqligi siyosiy partiyalarning o`zi tomonidan ta`minlanadi. Siyosiy partiyalar o`z faoliyatining moliyalashtirilishi hajmi va manbalari haqida axborot e`lon qilib turishi kerak.

²⁸ 3. Ўзбекистон Республикаси "Сийёсий партиялар тўғрисида" ги Қонуни. 337-І-сон, 26.12.1996.

"Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga muvofiq siyosiy partiya, agar u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov yakunlari bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuniga muvofiq Qonunchilik palatasida siyosiy partiya fraksiyasini tuzish uchun zarur miqdorda deputatlik o'rinlarini olgan bo'lsa, o'zining ustavda nazarda tutilgan faoliyatini moliyalashtirish uchun davlat mablag'larini olish huquqiga ega bo'ladi. Ushbu norma siyosiy partiyalarni Qonunchilik palatasida ko'proq o'rin olishga undaydi²⁹.

Siyosiy partiyalarning ustavda nazarda tutilgan faoliyatini moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag'larining yillik hajmi shu mablag'larni ajratish mo'ljallanayotgan yildan oldingi yilning 1 yanvaridagi holatga ko'ra belgilangan eng kam ish haqining ikki foizini Qonunchilik palatasiga o'tkazilgan oxirgi saylovda saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan fuqarolar soniga ko'paytmasi miqdorida shakllantiriladi. Davlat mablag'larini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Qonunchilik palatasiga oxirgi saylovning O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan aniqlangan natijalari asosida bu mablag'larni olish huquqiga ega bo'lgan siyosiy partiyalar o'rtasida ularning Qonunchilik palatasida olgan deputatlik o'rinlari miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlaydi.

Siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasiga va davlat hokimiyatining boshqa vakillik organlariga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish belgilangan tartibda faqat ana shu maqsadlar uchun ajratiladigan davlat mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Siyosiy partiyalarni saylovda boshqa mablag'lar hisobidan moliyalashtirish va moddiy jihatdan o'zgacha tarzda qo'llab-quvvatlash taqiqlanadi.

²⁹ 4. Ўзбекистон Республикаси "Сийёсий партиялар фаолиятини молиялаштириш тўғрисида"ги Қонун. 617-II-сон, 30.04.2004.

Siyosiy partiyalarning Qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag`larining bir deputatlikka nomzod hisobiga to`g`ri keladigan miqdori O`zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi. Siyosiy partiyaning Qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag`lari shu partiyadan Qonunchilik palatasi deputatligiga ko`rsatilgan nomzodlar ro`yxatga olingandan keyin ro`yxatga olingan nomzodlar soniga muvofiq hajmda siyosiy partiyaning hisob-kitob varag`iga belgilangan tartibda o`tkaziladi.²³ Qonunchilik palatasiga saylovda siyosiy partiyalarning ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratilgan davlat mablag`lari siyosiy partiya tomonidan:

saylovoldi ko`rgazmali tashviqot vositalarini nashr qilishga; Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning televidenie, radio orqali va boshqa ommaviy axborot vositalarida chiqishlarini tashkil etishga;

Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlarini tashkil etishga;

Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning ishonchli vakillari va bevosita saylov okrugida saylovoldi tashviqotini o`tkazish uchun jalb qilinadigan boshqa faollar ishini tashkil etishga; saylov kampaniyasini o`tkazishga doir umumpartiyaviy tadbirlarga sarflanishi kerak.

Agar Qonunchilik palatasiga saylov yakunlari bo`yicha siyosiy partiya fraktsiya tuzish uchun zarur miqdorda deputatlik o`rinlarini ololmagan bo`lsa, siyosiy partiyaning Qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratilgan davlat mablag`lari mazkur partiyaning boshqa manbalardan olgan mablag`lari hisobidan O`zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga qaytarilishi kerak. Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiya fraktsiyalarining faoliyatini tashkiliy,

texnikaviy jihatdan va boshqa tarzda ta'minlash uchun ajratiladigan davlat mablag'lari Qonunchilik palatasining xarajatlari smetasida nazarda tutiladi.

Siyosiy partiyalar faqat ustavda nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari (chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar bundan mustasno) va fuqarolaridan pul shaklida hamda mol-mulk berish, xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish tarzida xayriya yordamini olish huquqiga ega. Siyosiy partiya xayriya yordamini qabul qilishni rad etishga haqli. Siyosiy partiyalar O'zbekiston Respublikasining bir yuridik shaxsidan bir yil mobaynida olgan xayriya yordami summasi xayriya yordami berilgan yilning 1 yanvaridagi holatga ko'ra belgilangan eng kam ish haqining besh ming baravaridan O'zbekiston Respublikasining bir fuqarosidan esa besh yuz baravaridan oshmasligi lozim. Siyosiy partiyalarga xayriya yordami berishdagi cheklashlar "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi Qonunning 15-moddasida sanab o'tilgan.

Unga ko'ra siyosiy partiyalarga pul mablag'lari shaklidagi, mol-mulk berish, xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish tariqasidagi (shu jumladan grantlar ajratish, texnik yordam ko'rsatish, safarlar bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida o'tkaziladigan treninglar, seminarlar, konferentsiyalar bilan bog'liq xarajatlarga haq to'lash orqali) xayriya yordami quyidagilar tomonidan berilishiga yo'l qo'yilmaydi: chet davlatlar; chet davlatlarning yuridik shaxslari, ularning vakolatxonalari va filiallari; xalqaro tashkilotlar, ularning vakolatxonalari va filiallari; chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar; chet el fuqarolari; fuqaroligi bo'lmagan shaxslar; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, diniy tashkilotlar va nomi yashirilgan yoki faqat taxallusi ko'rsatilgan shaxslar. Siyosiy partiya o'z faoliyatining moliyalashtirilishi masalalari yuzasidan tegishli davlat organlarining qarorlari va ular mansabdor

shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga shikoyat qilishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni e'tirof etish lozimki, nomzodlar ishonchli vakillarining faoliyati juda muhim bo'lib, nomzodlarning saylov jarayonlarda samarali faoliyat olib borishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonning er osti va er usti zaxiralari, ajdodlar mehnati bilan yaratilgan boyliklar, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ma'naviy kuchqudrat, imkoniyatlar uzbek xalqi farovonligi, mustaqil res- publika ning hozirgi hayoti va istiqboli uchun xizmat qiluvchi zamin bulib qoldi. Inson omili, inson manfaatlari, uning va erkinliklarini himoya qilish davlat siyosati darajasiga kutarildi. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga quyish, madaniyat va ma'naviyat masalalarida ham ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanilib, hap tomonlama bilimga ega bulgan etuk mutaxassislarni tayyorlash uchun jaxon standartlariga mos sharoitlar yaratildi. O'zbekiston mustaqillikka erishkandan so'ng saylov siyosatiga e'tibor kuchaytirildi, va bundan keyingi saylovlar haqqoniy va demokratik tarzda o'tkazilmoqda.

Jamiyatning siyosiy tizimi ijtimoiy- siyosiy tusdagi munosabatlarda qatnashuvchi tashkilotlardan iborat. Siyosiy tizimning ajralmas tarkibiy qismi va uning asosiy bo'g'inlaridan biri esa siyosiy partiyalardir. Partiya- (lot. Partio- , bo'laman, ajrataman) g'oyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari mushtarak bo'lgan , shuningdek, muayyan ishni bajarish uchun ajratilgan kishilar guruhi. Siyosiy partiya jamiyatda kishilarni birlashtiradi va ularning maqsad - muddaolarini birligi ta'minlaydi, vakillik organlari uchun kurashib,o'z siyosiy guruhlarining manfaatlarini himoya kiladilar. Oliy Majlis,xalq deputatlari kengashlarini shakllantirishda ular ham eng asosiy siyosiy kuch sifatida maydonga chiqadilar hamda o'z nomzodlarining saylanishi bilan hokimiyatni tuzish va davlat boshqaruvida ishtirok etadilar.

Partiyalarning vujudga kelish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning ko'rinishi qadimgi davrlardayoq mavjud bo'lganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, miloddan avvalgi V asrda Afina (Yunoniston)da aristokratik va demokratik guruhlar (bular o'ziga xos dastlabki partiyalar

edi) o`rtasida siyosiy kurash boshlangan edi. Siyosiy partiyalar o`rta asrlarda ham mavjud bo`lgan. Shuni nazarda tutish kerakki, qadimgi davrda ham ,o`rta asrlarda ham partiyalar faqat davlatni boshqarish rejimi (tartibi) ma`lum darajada demokratiya alomatlariga ega bo`lgan joylardagina tashkil topgan.

Demokratik jamiyatda siyosiy partiyalarning roli shundaki, demokratiya faol siyosiy partiyalarning bo`lishini taqozo etadi. Siyosiy partiya – bu mukammal tashkilot bo`lib, demokratik boshqaruv jarayonida muhim bo`lgan bir qator o`zaro bog`langan funktsiyalarni amalga oshiradi. Shulardan eng asosiysi davlat muassasalari va organlari ustidan ma`lum bir darajadagi nazoratni qo`lga kiritish maqsadida saylovlarda qatnashish va g`alaba qozonish hisoblanadi. 2008 yil 1-yanvardan kuchga kirgan “davlat boshqaruvinn yangilash va yanada demokratlashtirish xamda mamlakatni moderinizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning ro`lini kuchaytrish to`g`risida” gi qonuni buning yaqqol dalilidir. Demokratiyaning eng muhim belgilaridan biri bu–hokimiyat vakillik organlarining ko`ppartiyaviylik asosida shakllanishidir. Respublikamizda siyosiy hayotni demokratlashtirish borasida konstitutsiyaviy xuquqiy asos yaratildi.

Shuningdek mamlakatimizda demokratik jarayonlar yangi bosqichga ko`tarilgan, ommaviy axborot vositalarining yanada erkinlashgan, blogerlik faoliyati keng rivojlanayotgan, ijtimoiy tarmoqlar ta`siri kuchaygan, mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga yanada keng uyg`unlashayotgan sharoitda faqatgina kuchli siyosiy partiyalargina munosib o`rinni egallaydilar hamda Hukumatni shakllantirishda ishtirok eta oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2020
2. O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonuni. 1996 yil 26 dekabr`.
3. Mirziyoev Sh.M. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak. Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruza. 2017 yil 12 iyul`.// Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. -B.539-586.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi.
- 6.O'zbekiston Respublikasi "Siyosiy partiyalar to'g'risida" gi Qonuni. 337-I-son, 26.12.1996.
- 7.O'zbekiston Respublikasi "Siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalashtirish to'g'risida"gi Qonun. 617-II-son, 30.04.2004.
- 8.O'zbekiston Respublikasi "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonun. 223-XII – son , 15.02.1991.
- 9.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni
- 10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi PF-6155-son Farmoni.
11. Prezident murojaatnomasi: 2021 yilning ustuvor yo'nalishlari. – T. «Tarraqiet strategiyasi» markazi, 2021.9
- 12.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi", 2017 yil 12 iyul`.

13. D.Q.Axmedov “Xorijiy mamlakatlarda siyosiy partiyalar va partiyaviy tizim.” T.:TDYuI nashriyoti,2004y.
- 14.S.A.Abbosxo‘jaev “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qo‘nunchilik palatasi faoliyatini tashkil etish”: yurid.fan.nom. dis....-Toshkent, 2007.
- 14.Demokratik ko‘ppartiyaviylik va parlamentarizm tamoyillarini rivojlantirish masalalari. T.: Sharq, 2003 y; O‘zbekiston: fuqarolik jamiyati sari T.: Sharq, 2003 y.
- 15.Bekov I. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va siyosiy partiyalar: Monografiya. –T.: TDYuI nashriyoti, 2010. – B.37–38.
16. I.R.Bekov “Saylov va siyosiy partiyalar” T, TDYuI. 2004 y., “Siyosiy partiyalar va jamiyatni demokratlashtirish” T.: TDYuI nashriyoti, 2009 y.
- 17.Mamadaliev Sh.O. O‘zbekiston siyosiy partiyalari: shakllanish jarayonlari va rivojlanish istiqbollari. – T., O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. – 2004. – 52 b.
- 18.Qirg‘izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. –T.: Sharq, 1998. – B.35.
- 19.“Saylov to‘g‘risidagi O‘zbekiston qonunlarining qaror topishi va rivojlanishi” T.,O‘zbekiston, 1999 y.
- 20.To‘lqin Alimardonov. Harakatlar strategiyasi – O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichi (<https://xs.uz/uzkr/post/harakatlar-strategiyasi-ozbekiston-millij-taraqqiyotining-yangi-bosqichi>).
- 21.E.X.Halilov “O‘zbekiston Respublikasining vonun chiqaruvchi oliy organi: soxta vakillikdan haqiqiy parlamentarizmga qadar.”- T.,O‘zbekiston,2001y.
- 22.O.T.Husanov “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsmya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunga
- 23.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan tuzatishlarga sharxlar.-T,Adolat, 2007y.

24.Fuqarolik jamiyati asoslari // A. Jalilov, U. Muhammadiev, Q. Jo`raev va boshq. – Toshkent, 2015. – B.204.

25.Yangibaev A. Siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati vakillik organlarini shakllantirishda va ularning faoliyatida ishtirok etishi // Yuridik fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. –T., 2019. – B.11.

Shet `l deraklari:

1.Blondel` J.Politicheskoe liderstvo: Put` k vseob`emlyuщему analizu M.: Rossiyskaya akademiya upravleniya, 1992.

2.Dyuverje M. Politicheskie partii / Per. s frants. — M.: Akademicheskii Proekt, 2000.

3. Sartori D. Iskajenie kontseptov v sravnitel`noy politologii (III).. – Polis. Politicheskie issledovaniya. 2003.

Internet saytlari:

(<https://xs.uz/uzkr/post/harakatlar-strategiyasi-ozbekiston-millij-taraqqiyotining-yangi-bosqichi>).